



VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2024-yil 1-mart, №9 (3071)

4-5

QORLI DALALAR
UZRA ER YIGITLAR
SHAXTI

8

MILLIY KINODA
VATANPARVAR OBRAZLAR

10

POYDEVOR
MUSTAHKAM BO'LSA

11

2 YIL-U 3 OY MAQSADSIZ,
SAMARASIZ HARAkatLAR

18

AKA-OPALAR IZIDAN
MUNOSIB ODIM



MARDLIK, MAHORATDA BIZNING KUCHIMIZ!



IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

BIZ
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya



TINCHLIK VA BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH YO'LIDA

Madaniyati, ma'naviyati boy millatimiz. Bu haqda biroz bo'lsa-da tasavvurga ega o'zga millat vakillari o'zbek deganda bag'rikengligimiz, tinchliksevarligimiz, mehmondo'stligimizni ko'z oldilariga keltirishlari rost. Bilasizmi, millatimizga xos birgina shu fazilatlar zahirida ulkan buyuklik bor. Shunday buyuklikki, o'zida qanchadan qancha qadriyatlarimizni jamlagan, doim tinchlik va osoyishtalikni targ'ib qilgan. Men doim shunday o'ylayman: agar umuminsoniy qadriyatlar negiziga o'zbekona madaniyatning eng sara jihatlari uyg'unlashsa bormi, dunyoda ezgulikning qo'li hamisha baland keladi.

Dunyoda shunday bir nufuzli xalqaro tashkilot bor. U avvalboshdanoq davlat, mintaqalar, millatlarning, bir so'z bilan aytganda, dunyo hamjamiyatining muammolarini o'rganish hamda uni yechishga maqsad va vazifalarini qaratdi. Xalqlarning tinch-totuv yashashga bo'lgan ezgu irodasining ulug'vor ramzi bo'ldi, insoniyat ma'naviy taraqqiyotining yorqin nishonasiga aylandi. Bu – Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) sanaladi. 79 yil oldin – 1945-yilda xalqaro hamjamiyat tomonidan insoniyatning Ikkinchi jahon urushidek dahshatli muhoraba takrorlanishiga yo'l qo'ymaslikdek ulkan maqsad va xohishi o'laroq tuzilgan mazkur tashkilot hozirgi vaqtda 193 ta davlatni birlashtirgan. U yer yuzida tinchlik va xavfsizlik, xotirjamlik va osoyishtalik, inson huquqini himoya qilish va barqaror taraqqiyotni tanlash yo'lida a'zo davlatlarni birlashtirishga xizmat qiladigan xalqaro tashkilot hisoblanadi.

BMTning maqsad va faoliyati 1945-yil 26-iyunda San-Fransisko shahrida 50 ta mamlakat tomonidan imzolangan BMT nizomida bayon etilgan maqsad va prinsiplar asosida belgilanadi. 1945-yilning 24-oktabrida kuchga kirgan nizomda BMT strukturasi hamda bahs va nizolarni hal qilishning asosiy tamoyillari mustahkamlangan. Nizomda ko'rsatilganidek, BMT xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, xalqlarning teng huquqli bo'lishi va o'z taqdirini o'zi belgilashi qoidasiga amal qilib, millatlar o'rtasida do'stlik munosabatlarini rivojlantirishni, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy muammolarni hal etishda xalqlar o'rtasida hamkorlik bo'lishini ta'minlashni ko'zda tutib, shu umumiy maqsadlarga erishishda millatlar

harakatini uyg'unlashtirib turadigan markaz hisoblanadi. E'tiborlisi shundaki, BMT nizomi inson huquqi muhofazasiga qaratilgan, global miqyosda qo'llab-quvvatlangan ilk xalqaro hujjat hisoblanadi.

BMT bugungi kunga qadar dunyoda kechayotgan har qanday siyosiy jarayonlarni muvofiqlashtirish va boshqarish, tabiiy ofatlarning oldini olish, qashshoqlikka qarshi kurashish kabi keng qamrovli muammolarni hal etish yo'lida samarali ish olib boryapti. BMT tizimida oltita bosh organ bo'lib, ularning beshtasi – Bosh Assambleya, Xavfsizlik kengashi, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash, Vasiylik kengashi va Kotibiyat Nyu-Yorkdagi markaziy qarorgohda, Xalqaro sud esa Gaaga shahrida faoliyat yuritadi.

Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritib, tanlagan taraqqiyot yo'lidan odimlay boshlagan ilk davrida, aniqrog'i, 1992-yilning 2-martida BMTga a'zo bo'ldi. 32 yil muqaddam mazkur nufuzli tashkilot bosh qarorgohida bayrog'imiz hilpiray boshladi. Bu davlatimiz tarixidagi o'ziga xos voqea bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi rayosatining qarorida bu xususda shunday deyilgan edi: "1992-yil 2-mart bahor kunini avlodlarimiz buyuk tarixiy kun deb ataydilar. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi va BMT binosi oldida mustaqil, suveren respublikamizning davlat bayrog'i ko'tarildi". Tenglar ichra tengligimiz tan olindi. Shundan so'ng 1993-yil 24-oktabrda Toshkentda Xolid Malik boshchiligidagi BMTning vakolatxonasi o'z ishini boshladi. O'sha paytdan buyon O'zbekiston tinchlik va barqarorlikka tahdid soluvchi xavf-xatarlarga qarshi kurashish, ekologik

muammolarni bartaraf etish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasida BMT bilan izchil hamkorlik qilib kelmoqda. Muhimi, BMTning teng huquqli va to'laqonli a'zosi sifatida O'zbekiston tenglik, hamkorlik, ko'ptomonlamalik va xalqaro siyosiy tizimni himoya qilish prinsiplariga so'zsiz amal qilishini namoyish etmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekistonda BMTning o'ndan ortiq dasturi, jamg'armasi va agentligi, jumladan BMT Taraqqiyot dasturi (BMT TD), Aholishunoslik jamg'armasi (YUNFPA), Bolalar jamg'armasi (YUNISEF), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST), Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO), Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (BMT NJB), OIV/OITS bo'yicha birlashgan dasturi (YUNEYDS), Gender tenglik, ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish masalalari bo'yicha tuzilmasi, Markaziy Osiyoda Preventiv diplomatiya mintaqaviy markazi, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti hamda BMTning TD rahbarligi ostida BMT ko'ngillilar dasturi singari bir qator ixtisoslashgan muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. O'z navbatida, mamlakatimizning tuzilmalar huzuridagi doimiy vakolatxonalari Nyu-York (AQSh) va Jeneva (Shveysariya) shaharlaridagi bo'linmalarda, boshqa xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalarimiz Vena (Avstriya) shahridagi bo'limda ish olib bormoqda.

Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston BMT bilan xalqaro munosabatlarni yanada rivojlantirish yo'lini tanladi. Shu bois tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan mazkur asosiy xalqaro tashkilot bilan hamkorlikka jiddiy e'tibor qaratadi. Davlatimiz BMT nizomi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa asosiy shartnomalarda ko'rsatilgan maqsad va tamoyillarga sodiq bo'lib, zimmasiga olgan majburiyatni og'ishmay bajarib kelmoqda.

Mamlakatimizda BMTning YUNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda qadimiy va ko'hna shaharlarimiz bo'lgan Buxoro, Xiva, Samarqand, Shahrisabz, Termiz va Toshkentning yubileylari xalqaro miqyosda o'tkazilgani, shuningdek qadimiy urf-odatlarimiz, boy madaniy merosimiz,

ma'naviyatimiz sarchashmalarini o'zida jamlagan madaniyat festivallarining tashkil etilgani g'oyat quvonarli. Zotan, bu ezgu amallar dunyo ahli tomonidan O'zbekiston fan, ta'lim, madaniyat beshigi deb tan olinganining e'tirofidir, desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Umuman olganda, bu yo'nalishda tashkilot bilan olib borayotgan hamkorliklarimiz negiziga nazar tashlar ekanmiz, qadriyatlarimiz, madaniyatimiz, ma'naviyatimizga dunyo ahlining qiziqishi baland ekanini ko'ramiz.

Keyingi yillarda O'zbekistonning BMT bilan hamkorligi yangi bosqichga ko'tarildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida, 2020-yil 25-sentabrda videokonferensiya shaklida tashkil qilingan 75-yubiley sessiyasida, shuningdek 2021-yilda BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida onlayn formatda va Bosh Assambleyaning 76-sessiyasida ma'ruza qildi. Ularda O'zbekistonning xalqaro va mintaqaviy xavfsizligini mustahkamlash, ta'lim, ma'naviyat, ekologiya, turizmni yanada rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish va boshqa sohalarga taalluqli tashabbuslarni ilgari surdi. Quvonarlisi, bu tashabbuslar BMT darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda.

Ma'lumki, o'tgan qisqa muddat mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, majburiy mehnatni bartaraf etish kabi umuminsoniy qadriyatlarga xizmat qiluvchi masalalarda ulkan natijalarga erishish davri sifatida tarixga muhurlandi. Eng muhimi, samarali islohotlarimiz BMT tamoyiliga uyg'un va yondosh xalqaro tuzilmalar bilan amaliy hamkorlikda olib borilmoqda.

Bugun jahon va mintaqadagi vaziyatni kuzatar ekanmiz, qurolli nizolar ko'lami kengayib, xalqaro tinchlik va barqarorlikka tahdidlar tobora kuchayayotganini ko'ramiz. Mana shunday murakkab sharoitda xalqaro miqyosda tinchlik va xavfsizlikni saqlash, barqaror rivojlanishni ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirishda markaziy muvofiqlashtiruvchi rol o'ynaydigan chinakam universal xalqaro tuzilmaga aylangan BMTning roli va mas'uliyati yanada ortmoqda. Ana shunday sharoitda bu tashkilot bilan samarali hamkorlik qilish xalqimizning milliy manfaatlariga to'liq mos keladi.

Umuman olganda, O'zbekiston va BMT hamkorligi bundan buyon ham faol davom etadi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston – 2030" strategiyasida mamlakatimiz dunyoning barcha davlatlari bilan manfaatli hamkorlikka, BMT va tashkilotning barcha institutlari bilan amaliy muloqotiga hamisha tayyorligini yana bir bor tasdiqlagan.

Xullas, O'zbekiston va BMT o'rtasidagi hamkorliklar va ularning ko'lami borasida uzundan uzoq to'xtalish mumkin. Gap faqat hamkorlikda emas, balki nufuzli xalqaro tashkilot ilgari surayotgan ezgu maqsadlar bilan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlardagi mushtarakligida. Eng muhimi shu.

**Podpolkovnik Gulnora
HOJIMURODOVA**

4-mart – Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo'shinlari tashkil etilgan kun

ISLOHOTLAR – yuqori samaradorlik omili

So'nggi yillarda Qurolli Kuchlar tizimida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilib, milliy armiyamiz saflari malakali kadrlar bilan butlandi. Harbiy xizmatchilar uchun esa qulay xizmat sharoitlari yaratildi. Tinchligimiz garovi bo'lgan harbiylarning jismoniy va jangovar qobiliyatlarini yanada kuchaytirish borasida qator sa'y-harakatlar jadallik bilan amalga oshirilmoqda.



Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo'shinlari qo'mondoni polkovnik Hasan Botirov bilan suhbatimiz ham aynan mazkur tizimda olib borilayotgan islohotlar haqida bo'ldi.

- Hasan Arzuddinovich, joriy yilning 4-mart kuni Qorovul qo'shinlari tashkil etilganiga 25 yil to'ladi. Ayting-chi, o'tgan davr mobaynida tizimda amalga oshirilgan muhim islohotlar sifatida nimalarni sanab o'tgan bo'laridingiz?

- Yurtimizda barcha sohalar qatori Qurolli Kuchlar tizimida, shu jumladan Qorovul qo'shinlarida olib borilgan tub islohotlar natijasi bugun barchamizni quvontiradi. O'zining boy va shonli tarixiy yo'lga ega bo'lgan mazkur tuzilma mamlakatimiz osoyishtaligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, davlatimiz rahbarining 2020-yil 7-yanvardagi qarori asosida Toshkent, Buxoro, Andijon hamda Navoiy viloyatlarida yangi qo'shilma va harbiy qismlar tashkil etildi, ularning moddiy-texnik bazasi va infratuzilmasi tubdan qayta ko'rib chiqilib, zamonaviy jihozlanishi yo'lida ulkan ishlar qilindi. Qo'shinlarning jangovar va safarbarlik shayligini tashkil etishda asosiy e'tibor harbiy xizmatchilarning malakasini oshirish, jangovar shaylik rejalarini qayta ishlab chiqishga qaratildi. Barcha harbiy qism va bo'linmalarda jangovar taktik o'quvlar dunyoda yuz berayotgan real voqelikka asoslangan holda tashkil qilinyapti. Hozirda shaxsiy tarkibning har qanday qiyin va o'zgaruvchan vaziyatda ham jangovar vazifalarni ishonch bilan bajara olishini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlar izchillik bilan davom ettirilmoqda.

O'tkazilgan islohotlar samarasi o'laroq 2020-yilda IIV Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi vaqtinchalik saqlash hibsonasi tarkibidagi konvoy bo'linmasi hamda

Toshkent shahri IIBB PPX va JTShga qarashli alohida konvoy batalyoni Qorovul qo'shinlariga o'tkazildi. Qo'shinlarga qarashli Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't tumanidagi harbiy qism esa tugatilib, unga qarashli moddiy-texnik vositalar boshqa harbiy qismlarga berildi.

Shuningdek, qo'shinlar tarkibidagi harbiy qismlarda ilk bor maxsus vazifalarni bajarishga mo'ljallangan bo'linmalar tashkil etildi. 2022-yilda mazkur vsvodlar tarkibi yangidan tuzilib, maxsus tayyorgarlik va moddiy ta'minot bo'yicha komandir o'rinbosari, yo'riqchi portlatuvchi, mergan, radioaloqachi va katta texnik-haydovchi, o'qchi-feldsher va yengil zirhlangan texnika haydovchisi kabi lavozimlar joriy etildi.

Kun sayin shiddat bilan o'zgarib borayotgan jahon geosiyosatidan kelib chiqqan holda kelgusida ham qo'shindagi islohotlar doirasida qilinayotgan amaliy ishlar davom etaveradi.

- Rag'bat – samaradorlik omili. Shu ma'noda xizmat vazifasini fidoyilik bilan ado etayotgan harbiylarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash borasidagi sa'y-harakatlar xususida ham to'xtalsangiz.

- Qo'shinlarda olib borilayotgan tub islohotlar zahirida eng avvalo inson qadri turadi. Shu boisdan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalasi doimiy diqqat markazimizda. Binobarin, 2020-yilga qadar Vatanimiz himoyasi yo'lida xizmat qilayotgan harbiylarning yashashi uchun 160 ta xonadon ajratilgan bo'lsa, keyingi to'rt yil davomida bu ko'rsatkich qariyb 10 barobar oshdi. 1 600 nafarga yaqin harbiy xizmatchi imtiyozli ravishda uzoq muddatli ipoteka kreditlari asosida uy-joylarga ega bo'ldi.

Bundan tashqari, doimiy ravishda sayyor uchrashuv va qabullar tashkil qilinib, shaxsiy tarkib va ularning oila

a'zolarini qiynayotgan muammolar atroflicha o'rganilib, qonun doirasida moddiy jihatdan yordam ko'rsatib kelinmoqda.

Xizmat vazifasini fidoyilik bilan ado etib kelayotgan harbiy xizmatchilarning farzandlariga mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi uchun imtiyozli tavsiyanomalar berilyapti. O'zining sog'lig'ini tiklash va respublikamizning so'lim go'shalarida joylashgan sanatoriylarda dam olib kelish istagida bo'lgan harbiylar uchun ham imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

- Yurtimiz yoshlarini Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda qo'shinlar tarkibidagi harbiy qism va bo'linmalarining o'zni qanday?

- Yurtimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni Vatanga vijdonan xizmat qiladigan, mard, jasur va shijoatli insonlar etib tarbiyalash borasida ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Barcha harbiy qism va harbiy-ma'muriy sektor rahbarlari bilan hamkorlikda yurtimiz maktablarida tahsil olayotgan yoshlar uchun doimiy ravishda ochiq eshiklar kuni o'tkazilib, yosh avlodning harbiy

sohaga bo'lgan qiziqish va ishtiyoqi yanada kuchaytirilmoqda. Shuningdek, ta'lim muassasalarida qo'mondonlik namunali ko'rgazmali orkestri, ashula va raqs ansambli hamda faxriy qorovuli tomonidan konsert dasturlari namoyish etilib, shu tariqa yoshlarimiz qalbida jonajon yurtimizning munosib qalqonlari bo'lish tuyg'usi shakllantirilmoqda.

Qo'shinlarga birlashtirilgan 1 000 nafar yoshning muammolarini o'rganish va ijobiy hal etish borasidagi manzilli sa'y-harakatlar ham kutilgan natijalarni berib, kelgusida ularning ko'pchiligi hayotini shu soha bilan bog'lashga ahd qilmoqda.

- Qorovul qo'shinlari safida xizmat qilayotgan harbiylar orasida dunyo sport maydonlarida mamlakatimiz bayrog'ini yuqoriga ko'tarayotgan sportchilar ham talaygina...

- To'g'ri aytdingiz. Qo'shinlar safida xizmat qilayotgan yurtimiz posbonlarining 60 nafari respublika, 18 nafari esa xalqaro musobaqalarda ishtirok etib, yuqori natijalarni qo'lga kiritdi. Jumladan, o'tgan yilning o'zida Turkiya va Gruziya mamlakatlarida bo'lib o'tgan sportning universal jang turi bo'yicha jahon chempionatida kapitan Jamol Amonov hamda mayor O'ktam Rajabov o'z vazn toifalarida shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy oldi. Xitoyda o'tkazilgan XIX yozgi Osiyo o'yinlarida esa yengil atletika bo'yicha muvaffaqiyatli ishtirok etgan kichik serjant Yekaterina Varonina faxrli 2-o'rinni egalladi. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilarimiz yurtimizda o'tkazilayotgan sport musobaqalari va chempionatlarida ham ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritib, o'zlarining nimalarga qodir ekanini barchaga namoyish etdi. Shu boisdan ham, qo'shinlardagi sportchilarning 15 nafari "Sport ustasi", 20 nafari "Sport ustaligiga nomzod" va "Xalqaro toifadagi sport ustasi" unvonlariga erishgan.

- Qorovul qo'shinlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan qo'l ostingizdagi ko'p sonli shaxsiy tarkibga tilaklaringiz.

- Avvalo, barcha shaxsiy tarkibni ushbu sana bilan, qolaversa, o'z hayotini el-yurtimiz tinchligi va osoyishtaligini asrashdek ezgu va oliyjanob ishga bag'ishlagani bilan samimiy muborakbod etaman! Ularning fidokorona xizmatlari evaziga IIV harbiy tuzilmalari izchil rivojlanib, jangovar qobiliyatimiz va mudofaa salohiyatimiz mustahkamlanib, buning natijasida xalqimizning farovon hayoti ta'minlanmoqda.

Barcha harbiy xizmatchilarimizga mustahkam sog'liq, oilaviy baxt-saodat, tinchlik va xotirjamlik tilayman. Davlatimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilishdan hech qachon charchamang, ona Vatanimizning mard va jasur posbonlari!

**"Postda" muxbiri
kapitan Mixli SAFAROV
suhbatlashdi.**

QUTLOV

*Tug'ilgan bu chamanim,
Alishmam keng ochunga,
Qo'riqlay deb Vatanim,
Askar bo'ldim qo'shinga.*

*Safiga qo'shilgan kun,
O'zimni yigit sezdim,
Xizmatida kun-u tun,
Sor, lochin, burgut sezdim.*

*Harbiylik libosini,
Doimo pok saqlarman,
Xalqimning ishonchini,
Toabadga oqlarman.*

*Sodiq bo'lib safiga,
Urrib tursin bu yurak,
Bitdim dil daftariga:
"Qutlug' yoshing muborak!"*

**Kichik serjant Abduhamid OLLAYOROV,
tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar
bo'yicha katta yo'riqchi**

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlari har yilgi o'quv dasturlarini takomillashtirib borishi natijasida harbiy xizmatchilar jangovar shaylikning turli uslubdagi mashg'ulotlarida ishtirok etadi. Yil davomida o'tkaziladigan har bir o'quv mashg'uloti hamda dala chiqishi hudud va ob-havo sharoitidan kelib chiqqan holda tashkillashtirilishi shaxsiy tarkib oldiga yangidan yangi vazifalarni qo'yadi.



QORLI DALALAR UZRA



Toshkent harbiy okrugiga qarashli "Angren" umumqo'shin tog' poligonining qalin qor qoplagan o'quv nuqtalarida ikki haftalik dala chiqishi mashg'ulotlarida qatnashgan harbiy xizmatchilar o'z kasblarining mas'uliyatli va shu bilan birga sharaflini yana bir marta his etdi. Chunki shaxsiy tarkibga odatdagi o'quv mashg'uloti hamda dala chiqishidan farqli ravishda qo'qqisdan berilgan trevoga orqali nazorat-texshiruv o'tkazildi. Bo'linmalar "Angren" umumqo'shin tog' poligoni bo'ylab o'z vazifasiga ko'ra joylashtirildi. Fevral oyining qorli kunlaridan iborat ob-havo sharoitida ko'chma qo'mondonlik punktlari tashkil etildi. Ikki hafta yashash uchun chodirlar, dala oshxonasi, tibbiyot punkti, aloqa-kommunikatsiya liniyalari barpo qilindi. Jangovar zirhli texnikalar, artilleriya qurilmalari belgilangan nuqtalarga joylashtirildi.

Dala chiqishi Mudofaa vazirligi markaziy apparati va Toshkent harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondonligi nazorat-texshiruv ostida o'tgani sababli dastlab mashg'ulotlar maxsus to'siqlardan iborat yo'laklarda, keyin esa jangovar otish nuqtalarida olib borildi. Motoo'qchi, mergan, aloqachi, muhandis-sapyor, razvedka-qidiruv, artilleriya, minomyot bo'linmalari harbiy xizmatchilari, ularni jangda qo'llab-quvvatlovchi tank va zirhli texnika (BTR) vavodlari jangovar otish nuqtalariga qadar qator taktik vazifalarni

bajarish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ularning harakatlari mas'ul ofitserlar hamda yo'riqchilar tomonidan kuzatib borildi. Kunduzgi mashg'ulotlar davomida barcha bo'linmalar harbiy xizmatchilari qorli muhitga hamohang niqoblangan kiyimlarda harakatlandi. Buning natijasida qishki ob-havo sharoitiga moslashtirilgan topshiriq muvaffaqiyatli uddalandi. Jang maydonidagi to'siqlar, minalashtirilgan hududlar muhandis-sapyor tomonidan tozalanib, bo'linmalarining talafotsiz harakati ta'minlandi.

Har kunlik mashg'ulotlardan keyin axloqiy-ruhiy ta'minot xonasi va gulxan atrofida tashkillashtirilgan dam olish dasturlari orqali harbiy xizmatchilarning ruhiy holati barqarorlashtirib borildi. Jarayonlardagi harakatlar bo'yicha taklif va mulohazalar o'rganib chiqildi. Mashg'ulot davomida bir necha yangicha o'quv-uslubiy harakatlar sinovdan o'tkazildi. Qalin qor sharoitiga qaramay, harbiy xizmatchilar o'zlariga topshirilgan vazifalarni tezkorlik bilan bajardi. Jangchi jangda maydon tanlamaydi, degan ibora mana shunday mashg'ulotlar davomida haqiqiy ma'noda o'z isbotini topadi. Harbiy xizmatchilarning noma'lum hududga moslashishi, aniq va hamjihatligi, xavfsizlik qoidalariga ham qat'iy rioya qilishi natijasida ko'zlangan maqsadga erishildi.

– Mashg'ulotlar davomiyligi erta





ER YIGITLAR SHAXTI



tongdan kechgacha bosqichma-bosqich o'tkazilayotgani bilan ahamiyatli. Harbiy xizmatchilar maxsus to'siqlardan iborat yo'laklarni bosib o'tgan holda jangovar otish nuqtalarida turli masofalardan jangovar qurollardan nishonlarni aniq mo'ljalga olish bo'yicha mahoratlarini oshirdi, – deydi kapitan Sardor Shodmonov. – Bu harakatlar jarayonida jangovar bo'linmalar ikkilik, to'rtlik va guruhlar tarkibida harakatlandi. Shu bilan birgalikda, yaradorlarga yordam ko'rsatish, qurol-aslaha, o'q-dori ta'minotini uzluksiz yo'lga qo'yish jarayonlari amalga oshirildi. Umuman olganda, ikki haftalik dala chiqishida bo'linmalarining jipsligi sinovdan o'tkazildi.

– Bugungi mashg'ulot davomida tog' o'qchi vzvodimiz bilan himoyadan shartli dushman egallab olgan hududga hujum uyushtirish amaliyotini bajardik. Vzvod shaxsiy tarkibi oldiga zirhli texnika (BTR) ko'magida shartli dushman pozitsiyasini ishg'ol etish topshirig'i qo'yilgandi. Bu vazifani kunduzgi sharoitda ham, tunda ham bir xil bajarishga harakat qildik va ko'zlangan maqsadga erishdik, – deydi kapitan Mirjalol Yo'ldoshev. – “Chimyon” tog' tayyorgarligi o'quv-mashqlar markazida “Kichik komandirlar va yetakchilik kursi”da olgan tajribamni bu kabi mashg'ulotlarda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lganim alohida e'tiborga molik.

– Qorli muhitda, buning ustiga, yangi taktik uslublarni sinovdan o'tkazish birmuncha qiyinchiliklar tug'dirgani sir emas. Ammo har qanday qiyinchilikni takror va takror bajarilgan mashqlar yordamida yengib o'tish mumkin. Jangchi jang maydonida o'zini haqiqiy jangchidek his eta oladi. Shunday ekan, har birimiz bunday imkoniyatdan unumli foydalanishga harakat qildik. Xizmatdosh do'stlarimning chidamliligi, mahorati va nimalarga qodir ekani qor qoplagan adirliklar uzra namoyon bo'ldi, desam, adashmayman. Shu jumladan, o'zimning ham, – deydi kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Davlat Eshaliyev.

Vatanni qo'riqlash – muqaddas burch. Harbiylik mas'uliyatini gardanga olish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Buni anglash uchun “Angren” umumqo'shin tog' poligonida, askarlar chodirida, tungi sovuq havo haroratida yashovchanlik qobiliyatini namoyish etgan harbiy xizmatchilar o'rnida bo'lib ko'rish kerak. Bir marta bo'lsa ham qorli dalalar uzra er yigitlar shaxtidan ko'tarilgan hovurni ko'rganlarga muqaddas burchning mas'uliyati qanchalik og'irligini haqiqiy ma'noda his eta oladi. Vatan himoyasiga bel bog'lagan bu yigitlar esa bunday holatni har kuni, har soniyada his etganicha o'z vazifasini sidqidildan bajaraveradi.

Asror RO'ZIBOYEV,
“Vatanparvar”





BOSHQARUVDA ZAMONAVIY KO'NIKMALAR



Muallif suratga olgan

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi "Termiz" umumqo'shin dala-o'quv maydonida okrug batalyon (divizion) komandirlari va ularning o'rinbosarlari ishtirokida 3 kunlik o'quv-uslubiy yig'in o'tkazildi.

Dastlab saf maydoniga jamlangan qatnashchilarga okrug qo'shinlari qo'mondoni o'rinbosari tomonidan yig'inning asosiy maqsadi yetkazildi. Shundan so'ng harbiy xizmatchilar uchun saf ko'rigi o'tkazilib, ularning tadbirga qay darajada tayyorgarlik ko'rgani tekshirildi.

Yig'inning keyingi kunlarida ishtirokchilardan jismoniy tayyorgarlik bo'yicha sinovlar qabul qilindi. Bunda ular turnikda aylanish, 100 metr hamda 3 kilometrga yugurish kabi mashqlarni bajargan bo'lsa, yuksak bilim va tajriba talab etadigan mashg'ulotlar qatnashchilarning ko'nikmalarini yana bir bor sinovdan o'tkazdi.

Xususan, texnik va taktik, otish, taktik tibbiy, muhandislik, aloqa tayyorgarliklari, ommaviy qirg'in qurollaridan himoyalash, artileriya olovini boshqarish va tog' tayyorgarligi bo'yicha test sinovlari olindi. Bevosita harbiy okrug boshqaruv apparatining malakali ofitserlari nazoratida bo'lib o'tgan o'quv-uslubiy yig'inda bo'ysunuvchi bo'linmalarni o'qitishda zamonaviy tajribalarni targ'ib etishga alohida e'tibor qaratildi.



Bundan tashqari, yig'in rejasiga asosan, harbiy xizmatchilarning otish tayyorgarligi, uzoq masofaga marsh yurish, jangovar va avtomobil texnikalarini boshqarish mashg'ulotlarini tashkillashtirish va o'tkazish ko'nikmalari sinovdan o'tkazildi. Amaliy mashg'ulotlar kunduzi va tunda olib borilib, bunda barcha sinovlarda toblanayotgan harbiy xizmatchilarning jangovar shayligi yanada oshdi. Bu esa ularning o'z sohasi bo'yicha bilimlarini mustahkamlash, jangovar salohiyatini yanada yuksaltirish hamda faoliyati davomida to'g'ri va sifatli boshqaruvni amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

**III darajali serjant
Akbar AHMEDOV**
Termiz garnizoni

VATANPARVARLIK

TARBIYASI VA MAS'ULIYATI

Zangiota tumani ixtisoslashtirilgan maktabi 2022-yili o'z faoliyatini boshladi. Ushbu ta'lim muassasasi aniq va tabiiy fanlarni o'qitishga ixtisoslashtirilgan bo'lib, jami 417 nafar o'quvchi bilim olmoqda. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani bo'yicha 10- va 11-sinf o'quvchilaridan jami 96 nafar o'quvchi tahsil olmoqda.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisi zaxiradagi podpolkovnik Akmaljon Shirinov maktab direktorining yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha o'rinbosari bo'lgani sababli nafaqat bitiruvchi sinflar, balki ta'lim maskanidagi barcha o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga mas'ul. Tajribali pedagogning ish faoliyati bilan yaqindan tanishish asnosida dastlab uning 6-sinf o'quvchilari bilan tarbiyaviy soat mashg'uloti o'tayotganining ustidan chiqdik. Ustozning o'gitlari va hayotiy saboqlarini bolajonlar jon qulog'i bilan tingladi. Fotosuratlarda aks etib turibdiki, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani xonasi zamonaviy o'quv materiallari va jihozlar bilan ta'minlangan.

Maktab direktori Yorqinoy Mirzahmedovaning ta'kidlashicha, mazkur ziyo maskani O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy tibbiyot akademiyasi, O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Keles o'quv sport-texnika klubi bilan hamkorlik memorandumi imzolangan. Buning natijasida ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash maqsadida tegishli tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yilib, hokimliklar va harbiy qismlar bilan birgalikda yaqin hududlarda joylashgan oliy ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida 10-11-sinf o'quvchilariga amaliy mashg'ulotlar o'tkazilmoqda.

– Maktabda faoliyat boshlaganimga hali ko'p muddat bo'lmaganiga qaramay, bu yerda o'quvchilar o'z farzandimdek bo'lib qoldi, – deydi chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisi zaxiradagi podpolkovnik Akmaljon Shirinov. – Maktabning 10- va 11-sinflarida 53

nafar qiz va 43 nafar o'g'il bola o'qiydi. Ular har haftada boshlang'ich harbiy saboqlarni o'zlashtirayotgani, fanga qiziqishlari yuqoriligidan mamnunman. Faoliyatimda bular bilan cheklanib qolmay, maktabdagi barcha o'quvchilarni buyuk ajdodlarimizga munosib qilib ulg'aytirishga alohida e'tibor qarataman.

Maktabning "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati otryadi 20 nafar 10- va 11-sinf o'g'il bolalaridan tashkil topgan. "Vatan tayanchi" harakati otryadi faoliyatini rivojlantirish maqsadida Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti bilan yo'lga qo'yilgan hamkorlik asosida muntazam ravishda "Jasorat darslari", harbiy texnikalar ko'rgazmasi, ekskursiya va harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi tadbirlar o'tkazilmoqda. Bu esa o'quvchi-yoshlarning kelajakda Vatanning sodiq farzandlari bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Katta leytenant
Dilshod RO'ZIQULOV,
"Vatanparvar"**



MILLIY KINODA



VATANPARVAR OBRAZLAR



Vatan tuyg'usi o'z nomi bilan TUYG'U! Uning yuzaga kelish manbai qalbdagi his-tuyg'ular bilan bog'liq ekan, o'sha hislarga jobiy ta'sir ko'rsatish orqali Vatanni yanada kuchliroq sevisha undash mumkin. Kino san'ati bu borada eng ta'sirchan kuchga ega. Mustaqillik davri o'zbek kinosida yaratilayotgan badiiy filmlar orasida, ayniqsa Ikkinchi jahon urushi mavzusiga bag'ishlangan kinolar ahamiyatli. Zero "Vatan" (2006), "Berlin – Oqqo'rg'on" (2018), "Ilhaq" (2020), "101" (2020), "O'zbek qizi" (2023) kabi filmlardagi qahramonlar Vatanga sadoqati, insoniyati, shijoati va ma'naviy jasoratlarini bilan yurt qayg'usidagi har kimga ibrat bo'larlidi.

Kinorejissyor Zulfiqor Musoqovning "Vatan" filmi voqealari urushda asirlikka tushgan, Germaniya hamda sobiq Ittifoq konslagerlarida turli sinovlarga uchragan va taqdir zaif bilan u yerlardan qochishga muvaffaq bo'lib, bir umr o'zga yurtlarda yashashga mahkum etilgan Qurbon Usmonov hamda uning xotiralari atrofida kechadi. Mazkur syujet chizig'i qahramon talqinidagi ikkita muhim xususiyatni ochib bergan. Birinchisi, badiiy xususiyat bo'lib, bunda Qurbon Usmonov obrazi orqali frontga borib, mardonavor kurashgan va har qanday sharoitda ham odamiyligini, o'zligi va yurtiga bo'lgan sadoqatini saqlab qola olgan oddiy o'zbek yigitining qiyofasi hayotiy bo'yoqlar bilan yoritilgan. Qurbon obrazi urush mavzusi doirasida mustaqillik davrida taklif etilgan ilk qahramon bo'lish bilan birga "o'zbekning asl farzandi qanday bo'lishi kerak?" degan dolzarb masalaga javob berishi bilan ham e'tiborlidir. Qahramon talqinidagi ikkinchi muhim xususiyat esa u orqali urush davridagi siyosiy jarayonlarga ko'zgu tutilganidir. Bu siyosiy jarayonlar, ayniqsa Vatan uchun beridan kechib kurashgan yuz minglab haqiqiy o'g'lonlarni urushga safarbar qilgan hukumatning o'zi tomonidan Qurbon misolida tazyiq va tahqirlarga duchor etilishi, Stalin rejimining qatag'on va balandparvoz shiorlarga asoslanishi, buning ortidan Qurbonniki singari qanchadan qancha umrlar zavol topganini ochib berishi bilan muhimdir.

Frontga ketgunga qadar Qurbon tomoshabin ko'z oldida mard va oliyjanob inson sifatida gavdalanadi, ya'ni dastlab qahramonning qanday inson ekanligi hissiy-emotsional epizodlar vositasida tanishtiriladi. Shu bois ham uning urushga kirgandan keyingi xatti-harakatlari ortiqcha pafosdek tuyulmaydi, vatanparvarlik tuyg'usi zo'rma-zo'raki yopishtirilgandek sezilmaydi, bir jumla bilan aytganda, qahramon nimaiki

qilsa, tabiiy chiqadi, o'ziga yarashadi. Qurbonning vayronalar orasidan chiqib, o'qdoni bo'shagan qurolini dushmanga uloqtirishi va ko'ksini ochib: "O'tib tashla, hayvonlar, otlaring!" deya hayqirishi filmning ta'sirchan epizodlaridan biriga aylangan. Dushman qarshisida bo'yin egishni xohlamay, bor g'azab-nafratini emotsional portlash orqali ifodalashi Qurbonni qahramon sifatidagi darajasini oshirgan. Aslida u tushgan vaziyat birorta qahramonlik alomatlariga ega emas, birinchidan, jangda mag'lub bo'lgan, ikkinchidan, qo'lidan hech narsa kelmaydigan ojiz ahvolda.

Lekin ayni mana shunday tang holatda ham ruhan taslim bo'lishni istamasligi, ochiq o'lim xavfi turganligini bilsa-da, dushmanni "hayvonlar" deb so'kish bilan ichki isyonlarini davom ettirishi uning xatti-harakatlariga qahramonlik bag'ishlaydi. Bunday yondashuv Qurbonning ana shu chorasiz vaziyatiga vatanparvarlik, o'z maslagiga sodiqlik singari ulug'vor g'oyalarni singirdigan (*bunday talqin uslubi keyinchalik "Ilhaq" filmida asirlikdagi qahramonning dushman bilan suhbatda o'zini mardonavor tutishi, "101" kartinasida qahramonlarning sillasi quriganiga qaramay, oldilariga tashlangan nonni ko'zlariga surtib, o'zaro taqsimlashi bilan bog'liq epizodlarda kuzatiladi*). Demak, qahramonni qahramonga aylantiruvchi omil faqatgina g'alaba bilan emas, balki oddiy askarning chorasiz ahvolda ham ma'naviy jasoratga qodir kichik qarorlari orqali ham yuzaga chiqishi mumkin.

"Berlin – Oqqo'rg'on" filmida esa Qo'zvoy Shodiyev (*Hasan Shuhratov*) ning snayperchi sifatida fashistlarga qarshi beayov kurash olib borгани aks ettirilgan. Filmida Qo'zvoy ikki xil sharoitda namoyon bo'ladi. Birinchisi, qahramonning urushdan oldingi davrda, ota-onasi bag'rida yurgan kunlarini tasvirlash bilan bog'liq bo'lib, unda ko'proq Qo'zvoyning xarakterini

tomoshabinga tanishtirish, uning sofdil va samimiy yigitligiga urg'u berish yetakchilik qilgan.

Bunday uslub, ya'ni qahramonning urushga ketishdan oldingi qiyofasini yoritish unga urush qanday ta'sir ko'rsatgani, urush uni qaysi tomonga o'zgartirganini ochib berish uchun imkon yaratgan. Chunki keyingi sharoitda Qo'zvoy endi fashistlarning dodini berishga qasdlangan haqiqiy jangchi sifatida tasvirlanadi. Agar filmida qahramonning urushdan oldingi davrdagi qiyofasi ko'rsatilmaganida Qo'zvoyning dushman askarlarini birin-ketin yo'q qilishi, kezi kelganda quruq qo'l bilan ularni yer tishlatish motivlari o'z ta'sirchanligini yo'qotgan bo'lar edi. Sababi Qo'zvoyning ayni urushga ketishdan avvalgi samimiyligi, soddaligi, mehribonligi, mehnatkashligi uni urushda dushmanlar jonini olayotgan jangchi Qo'zvoy bilan bevosita solishtirish va shu orqali urushning qahramon xarakteri va hayotiga qanday ta'sir o'tkazgani haqida xulosa chiqarishga undaydi.

Qahramon talqinidagi yana bir muhim jihat uning jang qilish maqsadi bilan bog'liq. Avvaliga Qo'zvoy dushmanga qarshi qasos olish niyatida kurashayotgani ko'rsatiladi. Chunki u suyuqli tog'asining fashistlar tomonidan bo'laklarga bo'linib, ayanchli ahvolda solingan jasadini o'z ko'zi bilan ko'rgan edi. O'sha epizodda u shunday qarorga keladi: "Komandir, men fashistni asir olmayman, faqat o'ldiraman". Shundan keyin Qo'zvoy dushmanlardan tog'asining xunini olishga qasdlanadi. Demak, qahramonni jang qilishga undovchi dastlabki omil qasos olish ekan ko'rinadi. Voqealar so'ngida esa Qo'zvoy bir lahza oilasi ustiga fashistlar bostirib borayotgani va ota-onasiga qo'shib, butun yaqinlarini otib tashlayotganini tasavvur qiladi, xayolidan o'tkazadi. Shundan keyin qahramonning dushmanga qarshi kurashi qasd olish maqsadidan oilasi va yaqinlarini himoya qilish maqsadiga o'zgaradi. Qahramonning bunday xulosaga kelishi dushmanga qarshi kurash, birinchi navbatda, qasos olish uchun emas, balki ulardan oilani himoya qilish, oila misolida esa Vatanni asrab-avaylash ekan ma'lum bo'ladi.

Urush mavzusidagi badiiy filmlar mazmun-mohiyatiga ko'ra vatanparvarlik, qahramonlik, fidoyilik singari g'oyalarni targ'ib etar ekan, "Ilhaq" filmida ushbu vazifani o'g'illarning urushga ketishi va janglarda qanday xotima topgani bilan bog'liq motivlar bajargan. Xususan, birinчилar qatorida Ahmadjon bilan Muhammadjon frontga ketgach, qolgan

akalarini ham urushga olib ketmasliklari uchun kenja o'g'il – Yusufjonning ko'ngilli bo'lib frontga yozilishi, akasi Vahobjonning bundan xabar topib, qattiq g'azablanishi va o'zining o'rniga ukasi urushga ketishiga yigitlik or-nomusi yo'l qo'ymay, frontga o'tlanishi, eng so'ngida Is'hoqjonning front ortidagi nohaqlik va vijdotsizliklarga chiday olmay, o'z xohishi bilan urushga jo'nashi bilan bog'liq epizodlar qahramonlar xarakteridagi alohida xususiyatlarni ochib berish bilan birga, ularni chinakam qahramon darajasiga olib chiqish uchun yo'l ochgan.

O'zbek kinosida Ikkinchi jahon urushi mavzusini yoritish bo'yicha bir vaqtlar shakllanib ulgurgan an'analar so'nggi yillarda milliy kinoda suratga olinayotgan filmlar orqali qayta tiklanayotgani quvonarli hodisa, albatta. Bunda urush mavzusida yaratilayotgan har bir filmning o'ziga yarasha hissasi borligi aniq. Chunki har bir filmdan so'ng urush mavzusini yoritish bo'yicha ijodkorlarda ma'lum tajribalar ortadi va bundan ham saviyali, bundan ham mazmunli filmlar yaratish uchun zamin hozirlaydi. Shu ma'noda, "O'zbek qizi" filmi alohida ahamiyatga ega.

Filmning voqealar markaziga Jamila Qodirova obrazi olib chiqilgan. Film avvalidagi kadrlar orqali uning ota-onasi "xalq dushmani" sifatida qamab yuborilgani va ammasi bilan yolg'iz qolgani, shuningdek Rustam ismli yigitga unashirilgani ma'lum bo'ladi. Qahramon biografiasini shu ma'lumotlar bilangina cheklangan. Qahramon shaxsiyati qisman front orti va asosan front voqealari davomida ochib boriladi. Raisga xotin bo'lishni istamay, uyini tark etishi, ayol boshi bilan frontgacha yetib borishi, dushman bilan dastlabki to'qnashuvdayoq jasorat ko'rsatishi, og'ir operatsiyani dadil boshdan o'tkazishi, snayperchilar maktabida sabot bilan mahorat oshirishi, jang maydonida o'zini mardonavor tutishi va so'nggi kadrlarga qadar unashirilgan yigiti xayoli bilan yashab, sadoqat ko'rsatishi orqali Jamilaning or-nomusi kuchli, qat'iyatli, bardoshli, jasur va vafoli inson ekan ko'rinadi.

"O'zbek qizi" filmidagi o'zbek jangchi ayoli obrazi milliy kino uchun yangi talqin. Chunki bunga qadar urush mavzusidagi o'zbek badiiy filmlarida ayollar obrazi, asosan, mushtipar ona, sadoqatli yor, urush tufayli jabr chekkan zaifa sifatida olib chiqilgan. Biroq xorij kinosida Ikkinchi jahon urushi yillari qahramonlik ko'rsatgan snayperchi ayollar haqida filmlar talaygina. "Diqqat, Moskvadan gapiramiz" (2005), "Snayper 2: Tungus" (2012), "Snayperlar: Nishondagi muhabbat" (2012), "Nishon ko'rinyapti" (2013), "Sevastopol uchun jang" (2015) va yana boshqa shu singari filmlarda urush yillaridagi ayol snayperchilar obrazi turli taqdir yo'llari orqali ko'rsatilgan.

"O'zbek qizi"da bu kabi filmlarning ijodiy tajribasidan dadil foydalanganini butun kompozitsion tuzilmada aks etgan. Ayniqsa, Jamilaning snayperchi qizlar maktabidagi tayyorgarlik jarayonlari, qizlar o'rtasidagi dialoglar va qahramon ruhiy holatini tasvirovchi epizodlar hamda qahramonning frontdagi kadrlarida ma'lum klishelar qo'llanilgani yaqqol seziladi. Shunga qaramay, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda "O'zbek qizi" kabi harbiy-qahramonlik yo'nalishidagi filmlarga ehtiyoj kattaligini qayd etish zarur. Chunki har bir millat vatanparvar va fidoyi farzandlari bilan yuksalib boradi. Ana shunday avlodni tarbiyalash va kamolga yetkazishda bevosita o'zbek kinosi zimmasida ham ulkan mas'uliyat yuki bor.



O'zbekning benazir shoirasi

tushadi: “Men dunyoga kelib dunyo orttirdim, hammasini tashlab ketarman, qalbni esa so'nggi hujayrasigacha, lovullatib yondirib ketarman”. Shoiri Zulfiya ham qalbni lovullatib yondirib ketganlardan edikim, bu olovning tafti hali ham so'nmay kelayotir.

“Haqiqiy she'riyat seni o'rab olgan hayotning zavq-u shavqi, qalbingning shodligi-yu dardi, ko'rgan-kechirganlarning teran fikr etilishi demakdir. Demak, she'r jamiyatdagi, o'z zamonang va hayotingdagi voqealardan, baxt va tashvishdan oddiy hayotiy orzu-yu yumushlar to'la kunlardan, qaynoq harorat va mehr to'la yurakdan, mehnat bilan bedor o'tgan tunlardan vujudga keladi”, degan edi shoira.

Ha, haqiqiy ijod chin dildan, ko'ngilning hali hech kimga oshkor etmagan tug'yonidan vujudga keladi. Shoira ham dunyoning g'am-tashvishlaridan, taqdirning beshafqat o'yinlaridan ozorlanganida, ayriliq dardi og'rig'idan o'rtanganida, yoki aksincha quvonganida, qalbi orom olganida qalam bilan sirlashdi, kechinmalarini u bilan o'rtoqlashdi. Uning uchun qalam eng yaqin sirdoshga, maslahatdoshga aylandi. Ba'zan turmush va ish tashvishlari bilan o'ralashib, qo'lga qalam ololmagan kezlari ijodini qo'msab, tug'yonlaridan qiynaldi.

Qo'limda shoiraning “Yillar, yillar...” deb nomlangan to'plami. Biroz uniqib qolgan kitobni asta varaqlayman. She'riy misralar, xayolotga chorlaydigan sohir misralar. Insoniylik, oddiylik, sadoqat, shafqat tushunchalari, muhabbat tuyg'usi tarannum etilgan ularda. Ularni mutolaa qilgan sayin hayotga muhabbat, umidvorlik, ishonch va yashash hissi qamrab oladi kishini. Shunda shoiraning muddaosini tushungandek bo'laman. U o'z she'rlari bilan insonlar ruhiy olamiga kirib borish, loqal shu bilan ular xizmatida bo'lishni maqsad qilgan. Qalbi xasta, ammo portug'yon, iymoni but shoira o'z qismatidan nolimadi, balki she'rlari orqali hayot zavqini, sevgi va vafo shevasini, Vatani muhabbatini tarannum etaverdi.

...Qayga bormay qaytgum,
senga intiqman,
Mening ohanrabom,
mening nashidam.
Qonimdagi yonish,
bebosh hislarim,

Qoniqmas ta'bimni
ziqlikka yo'yuma!
Qaynoq suyugum,
Kuyim,
Sovuq jasadim,
Ona Vatan, o'tinch,
bag'ringdan qo'yuma.
Vatan bo'lmasaydi,
odamzod, albat,
O'zi kashf etardi, kashf
etganday baxt.

Alloma Bedil aytganlaridek, “Shodliklarning barchasi g'amdan yaralgan”. Vatanni baxt deb, baxtni Vatan deb kashf etish, o'zligi bilan Vatanning mushtarakligini tuyish va o'zgalarni ham shunday yashashga chorlash, qalblarga uni singdirish, ezgulikdir, go'zallikdir. Shu boisdan ham bu qalbi go'zal inson Vatan, hayot, saodat va sadoqat kuychisi deb e'tirof etilgan bo'lsa, ajabmas. Bunga esa Zulfiyaning turmush o'rtog'i, mehrlari do'sti, talabchan ustoz, o'zbekning baxt kuychisi Hamid Olimjonga bo'lgan butun umrlik muhabbati, sadoqati sababdir. Zero shoiraning hayoti mobaynida yozgan eng o'tli satrlari aynan qalbinging egasi bo'lgan mana shu insonga bag'ishlandi. U har dam Hamid Olimjonni yonida tasavvur qildi, uning borligini dildan his qilib, unga intiq bo'lib yashadi, his-tuyg'ularini u bilan bo'lishdi... Haqiqiy muhabbat deb mana shuni aytalar kerak-da.

“Bir mo'jiza yuz berib, Hamid Olimjon dunyoga qayta kelguday bo'lganlarida edi, borliq sha'ni-shavkatimni, orttirgan izzat-e'tiborimni, borliq-bisotimni, jism-u jonimni izlariga poyandoz qilgan bo'lar edim”, deb yozadi shoira.

Boshga tushganni ko'z ko'rar deymiz, qismat deymiz, taqdir deymiz. Ha, yolg'iz boshiga tushgan ayriliq, ko'rguliklar, dardli qismat Zulfiyani buyuk shoira darajasiga olib chiqdi. Hayot, mashaqqatli, iztiroblarga limmo-lim hayot uning qo'lidagi qalamni charxladi. U tinmay ijod qildi, ezgu niyatlar ila she'r yozdi. Yorug' kunlar kelishiga intilib yashadi. Shuning uchun bu mashaqqatlarni buyuk matonati, bardoshi bilan yengib, ertangi kunni shodlik bilan kutib olishga intilaverdi, orzular cho'qqisi sari parvoz etaverdi. Uning she'rlari, umidli, muhabbatli misralari dardmand qalblarga malham bo'laverdi va hozir ham malham bo'lib kelyapti.

Yaxshi insonlar yodi hech qachon xotiradan o'chmaydi, dedik. Mana, bir necha yillar oldin xalqimizning bu suyukli farzandi Zulfiyaxonim nomini abadiylashtirish maqsadida Zulfiya nomidagi davlat mukofoti ta'sis etildi. Hozirda shu mukofot bilan taqdirlangan shoira izdoshlari soni yildan yilga ortmoqda. Demak, Zulfiya nomi sira o'chmaydi, balki shu'la taratib, nazm ko'chasiga qadam qo'ygan ijodkorlar uchun o'ziga xos mayoq bo'lib turadi.

Uning she'rlari bizni matonatli bo'lishga, hamisha olg'a intilishga, ozod, hur Vatanni sevishga, sadoqatli bo'lishga undab turadi. Demak, shoira hamon xalqqa xizmat qilayotir, u hamon barhayot.

Gulnora HOJIMURODOVA

Hayotda ezgulik ulashib, o'zidan yaxshi nom qoldirgan insonlar yillar, asrlar o'tsa-da, avlodlar qalbidan o'chmaydi. Aksincha ko'ngillardan mangu joy egallaydi. Zotan, nurga intilib yashagan insondan faqat nurli izlar, yorqin xotiralar qoladi. O'zbekiston xalq shoiri Zulfiya haqida ham ana shunday iliq fikrlarni bildirish mumkin.

Uyimizdagi javonda shoiraning “Hijron kunlarida” deb nomlangan kitobi bor. Har gal bu mo'jazgina kitobni qo'limga olganimda uning avvalidagi suratiga uzoq tikilib qolaman. Undagi mehr bilan tikilib turgan nigohlar, mayin tabassum ko'nglimga juda-juda yaqindek tuyiladi.

Bu ko'zlar. Uzoq yillardan beri menga tanish va qadrdon. Ularga qarab onamning, buvimning mehrini his qilgandek bo'laman...

Ha, uni hamisha kulib turgan holatda ko'rganman. O'shanda qani endi hayotda hamma ayollar ular kabi serzavq bo'lsa, deb orzu qilardim. Balki, u kulgu orqali o'z dardini yenggandir. Balki, u kulmoq uchun yashagandir. Bu haqiqatni men uzoq yillardan keyin, ancha ulg'ayib, bu benazir shoiraning hayoti va ijodi bilan tanishganimdan so'nggina tushungandek bo'ldim...

Shoira ismini o'rta maktabning 5-sinfida o'qib yurganimda ilk bor eshitganman. Hech qancha vaqt o'tmasdan oynayi jahonda uning chehrasini ko'rishga musharraf bo'ldim. O'shanda bahor fasli edi. Qandaydir tantanada katta sahnada egniga atlas ko'ylak kiyib, gul-gul ochilgan Zulfiya she'r o'qiy boshladi. Bahor, yasharish va yangilanish haqida zavq bilan o'qidi, bu she'rmi. Biram burro edi, biram yoqimli edi, bu misralar. Shunda zalni to'ldirib o'tirgan tomoshabinlar uni oyoqqa turib olqishlagani xuddi kechagidek yodimda.

Vaqtning oqar suvligini qarang, o'sha voqeaga ham ko'p yillar bo'ldi. U o'z mehnati, mashaqqati bilan obro' orttirib boraverdi. U musaffo tuyg'ular mavjini qalb to'lqinlari bilan she'riyatga olib kirdi. U misralarda hayotni, qadr-qimmatni, mehr-u vafoni olqishladi. Ayol muhabbati qudratini ko'klarga ko'tarib ulug'ladi, el dardidan kuydi, rohatidan quvondi. Chunki shoiraga befarqlik, o'zgalar taqdiri uchun kuyinmaslik begona tuyg'u edi.

Umrda g'afatga qolgan nafas yo'q,
Rohat istagini yo'llarga sochgum...

Bu satrlar shoiraning qanday oliyjanob, bag'rikeng, barchaga yaxshilik sog'inuvchi inson ekanligini tasdiqlaydi. Shular haqida yozyapman-u Asqad Muxtorning shunday so'zlari yodimga



POYDEVOR MUSTAHKAM BO'LSA

Maktab hovlisida harbiy libosda bizni qarshi olgan Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanidagi 22-umumta'lim maktabining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisi iste'fodagi katta serjant Nodir Hamzayevni avvaliga mudofaa ishlari bo'limi vakili, deb o'ylaganimiz rost. Kiyimlari o'ziga yarashgan, xatti-harakatlari ham rosmana Vatan himoyachilariga xos bo'lgan murabbiyning nafaqaga chiqqaniga 6 yil bo'layotganini suhbat asnosida bilib oldik. E'tiborlisi, ustozmuallim birinchi navbatda o'zi yurish-turishi, muomala madaniyati bilan o'quvchilarning harbiy xizmatga qiziqishi va ehtiromini oshirayotgandi.



Aslida ham, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani mamlakatimizda unib-o'sib kelayotgan navqiron avlod vakillariga ilk harbiy bilimlar berish, chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlash tizimining asosiy qismi hisoblanadi.

– Bosh qomusimiz, mamlakat mudofaa va milliy xavfsizligini ta'minlash, fuqaro muhofazasi sohasidagi huquqiy bilimlarni o'rganish, Umumharbiy nizomlar

talablari, harbiy xizmat va Vatanga qasamyod ahamiyatini anglash, Qurolli Kuchlarimizda mavjud qurol-aslaha, harbiy texnikalarning asosiy taktik-texnik tavsiflari, harbiy xizmatchilarning kundalik hayoti va xizmat faoliyati, oliy harbiy ta'lim muassasalari hamda ularda tayyorlanayotgan mutaxassisliklar to'g'risida tushunchaga ega bo'lish, harbiy xizmatga chaqirilishga ruhan va jismonan, intellektual jihatdan

shay bo'lish – bularning barchasi chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik jarayonida o'quvchi-yoshlar o'zlashtiradigan muhim jihatlardir, – deydi chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisi iste'fodagi katta serjant Nodir Hamzayev. – Biz ularga mukammal nazariy bilimlarni yetkazish barobarida amaliy ko'nikmalarini ham mustahkamlab borishga harakat qilyapmiz. Buning uchun maktabimiz zarur uskuna va jihozlar bilan to'liq ta'minlangan. Qolaversa, harbiy qism va muassasalarda o'tkaziladigan ochiq eshiklar kunida yigit-qizlarning amaliy tajribalarini oshirish imkoniyati ortadi.

Darhaqiqat, guvohi bo'lganimiz Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugga qarashli harbiy qismda o'tkazilgan navbatdagi tadbir ham mazkur maktab o'quvchilari xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. “Milliy armiyamiz yoshlar nigohida” shiori ostida o'tkazilgan ochiq eshiklar kunida ular harbiy qism hayoti, yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. Qurol-yarog'lar ko'rgazmasi, Vatan himoyachilari bilan kechgan samimiy muloqot va turli sport musobaqalari yoshlarga bir olam taassurot bag'ishladi.

“Xalq va armiya bir tan-u bir jondir” degan ezgu g'oya asosida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar tufayli Qurolli Kuchlarimiz mamlakatimiz taraqqiyoti, tinchligi va barqarorligining ishonchli kafolatiga, chinakam jasorat va matonat maktabiga aylanmoqda. Navqiron avlod qalbida harbiy-vatanparvarlik va insoniylik tuyg'ularini shakllantirib, xalq va armiya yakdilligini yanada mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar natijasida Vatan himoyachisi bo'lishni maqsad qilgan yoshlarda zaruriy harbiy bilim, tajriba va ko'nikmalar rivojlanmoqda. Bu kabi harakatlar yoshlarning ertangi kunga bo'lgan ishonchini yanada oshirib, jamiyatda mustahkam o'rin egallashida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.


Safar davomida yigitlarning hayrat va havas to'la ko'zlari, o'quvchi qizlarning ishonch va mehr balqigan nigohlari ko'z oldimizda muhrlandi. Kelajakda Vatan himoyasiga kamarbasta bo'lgan yigitlar bu kabi yuksak ishonchga munosib javob qaytarishiga shubha yo'q.

Zero ularning boshlang'ich harbiy tayyorgarlik bo'yicha poydevori mustahkam qo'yilmoqda.

Kapitan Aziz NORQULOV,
“Vatanparvar”

Sovetlarga qarshi kurashayotgan afg'onlarning urush uslubi partizanlar harakatiga o'xshar, asosan turli yuk olib kelayotgan mashina kolonnalariga hujum qilishar, vertolyot, samolyotlarni raketa va pulemyotlardan nishonga olishardi.

23 yil-u 3 oy maqsadsiz, samarasiz harakatlarni



Tog' va qishloq yo'llariga piyoda va tankka qarshi minalarni ko'mib qo'yishar, bu ularning ko'p qo'llaydigan usuli edi. Qishloqlarda bir necha yuz metr bo'lgan yerosti yo'laklari qazilgan bo'lib, bir odam engashib bemalol harakatlanishi mumkin edi. Buni adashmasam "koriz" deyishardi.

Qishloqqa yurishdan avval aholi "sho'ravi"lar kirishidan ogohlantirilar, karnay ovozini eshitgan odamlar yo'lga yaqin "zastava" oldida to'planishardi. Aholi chiqib bo'lganidan so'ng, qishloq to'plardan o'qqa tutilar, keyin qiruvchi samolyotlar aviabomba tashlardi. Bir soatlardan keyin piyoda bo'linmalar tanklar va boshqa jangovar mashinalar bilan qishloq ichkarisiga kirishni boshlardi.

Bu paytda qarshilik kuchlari ham yer ostidan chiqib, mudofaa o'rinlarini egallardi. Bizning kirib kelayotganimizni aniq ko'rib turishar, biz esa ularni ko'rmas edik. Birinchi zarbada kim nishonga olingan bo'lsa u halok bo'lar yoki jiddiy yaralanardi. Otishma taxminan qirq, ellik metr oraliqda davom etardi.

Harbiy qismda har doimgidek kunlik ish, mashg'ulotlar davom etardi.

Shu kunlarning birida oshxonadan chiqib kelayotganimda kimdir "Sodiq" deb chaqirdi. O'girilib qarasam, Murodjon. Shunaqa xursand bo'lib ketdimki... U bilan bitta maktabda o'qiganmiz, bir sinf katta edi. U uchinchi rotada shundoq ortimizdagi kazarmada ekan. Xizmatiga bir yil bo'lgan Murodjon bilan har kuni ko'rishib, gaplashib o'tirardik. U "reyd"ga chiqqanda nimalarga e'tibor berish kerakligini tushuntirar, ehtiyot bo'lishni uqtirardi.

1985-yil may oyi boshlandi. Bizning ikkinchi vzvod 9-may bayrami arafasida Kobul shahrida joylashgan Sovet elchixonasini qo'riqlashga yuborildi. Elchixonaning asosiy kirish darvozasi tashqi tomonida bitta BMP-2 mashinasida qo'riqlashda turdik, orqa tomonida ham shunday edi.

Ikki haftacha o'tdi, aytarli hodisa bo'lmadi, kecha-yu kunduz navbat bilan postdamiz. Ovqatlanishga elchixonona ichidagi oshxonaga kirardik. Elchixonona binolarini maxsus qo'riqlash rotasi qo'riqlar ekan, lekin ularni ko'rmasdim, ular biz kirgan oshxonaga kirishmas edi. Esimda qolgani darvozaning o'ng tomonida vodakachka bor edi, unda oltmish yoshlardagi afg'on ishlar, juda chiroyli bir qiz (*qizi bo'lsa kerak*) unga tushlik, kechki ovqat olib kelar, menga qarab kulimsirab o'tib ketardi. Bir kuni oldimga bir o'zbek kelib men bilan gaplashdi, o'ttiz besh yoshlarda edi, O'zbekistondagi hayot to'g'risida so'radi, men unga O'zbekistonga boring va doimiy yashashga qoling, degandim.

Elchixonona joylashgan ko'chadan bir xil qora kiyimda yuzlari ham qora matoda to'silgan, boshlariga qora ro'mol o'ragan maktab o'quvchilari o'tar, ularni ko'rib hayron bo'lardim. U paytda Qur'on suralarini bilmasdim. Ammo kazarmada shahardagi masjididan taralgan azon tovushini eshitib uyg'onardim.

Batalyonning keyingi reydi may oyida Chorikor, Bagram hududiga chiqish bilan boshlandi. Bir joyda o'ttizga yaqin ayollar, qariyalar, bolalar yig'i-sig'i qilib yo'lga chiqib keldi. Kombat podpolkovnik Sigankov to'xtashga qaror qildi, bizning kelayotganimizni ko'rib, ularni yo'lga chiqarishgan ekan. Qishloqqa uchta vzvod kirishni boshladi, biz ikkinchi vzvod yo'l chetida rezervda qoldik. Tush vaqti edi, ko'p o'tmay otishmalar boshlanib ketdi. O'q ovozlardan yaxshigina jang bo'layotganini bilib turardik.

Kombatga ichkaridagilar birin-ketin vaziyat xabarini yetkazib turishdi. Razvedvzvoddan bir, uchinchi rotadan ikki askar halok bo'lgani, minomyot batareyasida minalar tugayotgani va yana razvedvzvoddan bir askar og'ir yarador bo'lganini yetkazishdi. Kombat bizning vzvodga yordamga kirish uchun buyruq berdi, vzvod komandirimiz yukqoplarimizni bo'shatib, siqqanicha mina olishimizni aytdi. Yigirmatacha askar bor edi.

Minalar bilan zovur bo'ylab kirishni boshladik, meni qo'rquv, hayajon bosdi. Ellik metr yurmay to'rtta askarning plashchodirda halok bo'lgan serjantni olib chiqayotganiga duch keldik, o'q peshonasining o'ng tomonida katta teshik hosil qilganiga ko'zim tushdi. Etim jimirladi. Biroz to'xtadik, mo'ljalni aniqlab, yana yurdik. Zovur quruq, chuqurligi ikki metr atrofida ekan.

Yuz metrlar yurib zovurdan chiqdik va kuchli otishmalar bo'layotgan ko'chada ellik-oltmish metrdan keyin minomyotchilar turgan uyga kirib, ularga minalarni qoldirdik. Keyin atrofi paxsa devor bilan o'ralgan katta tomorqada devor panasida yoyilib turgan

AGS vzvodiga borib qo'shildik. Ofitserlardan biri granatomyotchi bir askarga "chiqib ko'rchi" dedi, u devordan chiqishi bilan pulemyotdan o't ochildi, askar o'zini ichkariga otdi. O'qlardan biri tizzasini yalab o'tgan, shimi yirtilib ketgandi. Haligi askar kulib, hayajonda sigaret tutatdi, ichidan nima o'tganini o'zi biladi.

Ko'p o'tmay orqadan tank kirib keldi. Tankchi o'q otilayotgan uyni mo'ljalga olib, bir necha snaryad otdi. Biz zovurga tushib, tez oldinga harakatlandik. Yana ellik metrcha yurdikda zovurning o'ng tarafiga chiqq boshladik, men oxirida qolib ketdim. Shu payt yonimda ikki metr naridan tankning gumburlagan o't ochgani eshitildi, qulog'im bitib qoldi. Garang holatimda zovurdan chiqib, to'g'ridagi paxsa devor panasiga o'zimni urdim. Shu devor panasida turib qoldik, oldinga yurishga buyruq bo'lmadi, tor ko'chadan uchinchi rota askarlari halok bo'lgan askarni plashchodirda ko'tarib chiqishdi. Qosh qoraya boshlaganda ortga qaytishga buyruq bo'ldi.

Bu jang 1985-yili 30-mayda Bagramdagi Qorabog' qishlog'ida bo'lib o'tgandi.

Shu o'rinda yana bir voqea. 1986-yili avgust oyi. Bagram hududida "reyd"dan qaytayotgandik. Biz turgan tog'ning etagida sapyorlar polki joylashgan ekan, ikki askar ro'para keldi, ular so'qmoqning oldi minalashtirilganini aytib, o'zimiz yo'l ko'rsatamiz, deyishdi. Orqaga burilib ular ko'rsatgan yo'ldan yurdik. Yo'l ko'rsatuvchi askarlar minalarga bog'langan simlarni nayza tayog'i bilan ko'rsatib turdi, biz simlar ustidan hatlab o'ta boshladik. Men oldingi qatorda edim, kombat besh metrcha oldinda, razvedvzvoddagi bir rus askar ataylab simni oyog'i bilan tepib yubordi. Liqha o'tmay mina baland ovoz chiqarib yuqoriga ko'tarildi. Shu zahoti kombatning "yot" deb baqirgani eshitildi, hamma o'zini yerga tashladi... Mina bizdan to'rt metrcha narida, zanglagan ekan portlamadi. Kombat haligi askarni g'azab bilan tepdi, qurollarini olib qo'ydi. Manzilga yetganimizda shom payti bo'lgandi.

Ertasiga nonushtadan so'ng batalyon saflandi. Kombat Pomgon tog'lariga vertolyotlarda tashlanishimizni, shu hududda ikkita Mig-29 "stinger"da urib tushirganligini, agar shu raketani kim topsa "Qizil bayroq" ordeniga ega bo'lishini va'da berdi. So'ng parashyutdan foydalanish ko'rsatildi. Shu kuni kechga yaqin haligi mina tortilgan simni tepib o'tgan razvedkachi askar granatani qorniga qo'yib, o'zini portlatib yuborganini eshitdik, uni ko'rgani borganlar bo'ldi, men bormadim. O'sha askar xizmatni endigina boshlagandi. Uni birinchi marta oziq-ovqat omborida yuk tushirayotganimizda ko'rgandim, dzyudo bilan shug'ullangan ekan, yelkasi keng, bo'yi baland, juda baquvvat edi. Keyin bilsam, "ded"lar uni ruhan sindirishgan ekan.

(Davomi bor)

Sodiqjon ALIMOV

Vatanparvarlik — eng muqaddas tuyg'u!



Bugun mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor har qachongidan ham yuqori. Ularning bilim olishlari, turli sohalarda o'zlarini namoyon etib, yurt koriga yaraydigan asl vatanparvarlar sifatida ulg'ayishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Ertamiz egalaring bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularning kasb tanlash borasidagi qiziqish va iste'dodlarini yanada rivojlantirish, shuningdek ilk harbiy ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari tomonidan ham qator tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Jizzax shahridagi bo'linma harbiy xizmatchilari hamda faxriylar ishtirokida shahardagi Olimpiya va parolimpiya zaxiralari sport kollejida yoshlar uchun "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar an'analari" mavzusida tashkil etilgan mashg'ulot zamonaviy o'quv qo'llanmalari va ko'rgazmali vositalardan keng foydalanilgan holda o'tkazildi. Mashg'ulotda so'z olganlar "Vatanga qasamyod" har bir er yigit uchun shon-sharaf ekani, unda yurtga muhabbat va sadoqat tuyg'ulari madh etilishi, jangovar bayroq esa yurt tinchligi uchun bel bog'lagan har bir jasur o'g'lonni faxr va iftixorga to'ldirib, jangovar ruhini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlab o'tdilar.

Tadbir davomida mustaqillik yillarida mamlakatimiz tinchligi, sarhadlarimiz daxlsizligini himoya qilish chog'ida qahramonlar halok bo'lgan harbiylar xotirasiga bag'ishlangan "Jasorat burchagi" qoshida ham suhbat tashkil etilib, faxriylar tomonidan mard va jasur o'g'lonlarimizning mislsiz jasoratlari o'quvchilarga so'zlab berildi.

Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumanidagi 7- va Termiz tumanidagi 16-umumta'lim maktablarida "Vatan muqaddas, uni himoya qilish sharaflari burchidir!" shiori ostida tashkil etilgan uchrashuvlar ham ertamiz

egalari va harbiylarning samimiy suhbatlari, yorqin taassurotlar-u fikr-mulohazalarga boy tarzda kechgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

Namoyish etilgan qurol-aslahalar ko'rgazmasi, xizmat itlari ishtirokidagi chiqishlar, shuningdek sarhadlarimiz posbonlari tomonidan Termiz shahrida joylashgan "Yosh chegarachilar" harbiy akademik litseyining faoliyati, ushbu ta'lim muassasasida yaratilgan shart-sharoit va qulayliklar hamda imtiyozlar xususida so'zlab berilishi o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi.

Ana shunday tadbirlardan yana biri Andijon viloyatining Qo'rg'ontepa tumanidagi 42-umumta'lim maktabida ham o'tkazildi. Uchrashuv davomida bugun milliy armiyamizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar, harbiylar va ularning oila a'zolari uchun yaratilayotgan shart-sharoit va qulayliklar, harbiylikning sharaflari hamda mas'uliyati xususida so'z bordi.

Toshkent viloyatining Bekobod tumanidagi chegaraoldi hududida joylashgan 11-umumta'lim maktabida tashkil etilgan davra suhbatlari esa "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – ustuvor vazifa!" deya nomlandi.

Suhbatda tuman hokimining chegara masalalari bo'yicha yordamchisi X. Yuldashev hamda DXX Chegara qo'shinlari

harbiylari ishtirok etib, mamlakatimiz kelajagini belgilashda shijoatli, o'z oldiga yuksak maqsadlarni belgilab ular sari olg'a intilayotgan qat'iyatli yoshlarning o'rni beqiyos ekanini ta'kidlashdi.

"Yangi O'zbekiston armiyasi mamlakat qudrati, yuksak g'urur va sadoqat timsolidir!" Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 220-umumta'lim maktabida o'tkazilgan davra suhbatlari ana shunday nomlandi. Chegara qo'shinlari faxriylari iste'fodagi podpolkovnik O'. Norqulov, serjant B. Xoliyorov va O'zbekiston Milliy gvardiyasi mas'ul xodimi mayor V. Jo'rayevlar ishtirok etgan suhbat davomida yoshlarning tahsil jarayoni, ular erishayotgan yutuq va natijalar hamda qo'l mehnati yordamida tayyorlagan ijodiy ishlari bilan yaqindan tanishildi.

Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, ularning bandligini ta'minlashga ko'maklashish, shuningdek vatanparvarlik ruhida kamolga yetishlarini ta'minlash borasida Qurolli Kuchlar akademiyasi Chegara fakulteti tomonidan ham qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, shahrimizning Mirzo Ulug'bek va Shayxontohur tumanlaridagi Sho'rtepa, Yangi Avayxon hamda Bo'ston mahallalarida istiqomat qilayotgan yoshlar fakultet

mas'ullarining doimiy diqqat-e'tiborida.

Mirzo Ulug'bek tumanidagi Yangi Avayxon mahallasida joylashgan 275-umumta'lim maktabida tashkil etilgan "Vatanparvarlik – eng muqaddas tuyg'u!" va "Kitobxonlik – inson ma'naviyatining ko'zgusi!" mavzularidagi davra suhbatlari yoshlar, o'qituvchi va kursantlar ishtirok etdi. Vatanni sevish – eng avvalo oiladan hamda mahalla va maktabdan boshlanishi haqidagi fikr-mulohazalar, taniqli shoir va yozuvchilarning yurtparvarlik g'oyalari asosida yaratilgan asarlari yuzasidan suhbatlar, harbiy orkestr tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlarning barchasi tadbir ishtirokchilariga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Umuman olganda, respublikamiz bo'ylab DXX Chegara qo'shinlariga qarashli bo'linmalar tomonidan o'tkazilayotgan bunday harbiy-vatanparvarlik tadbirlari davomida ertamiz davomchilarining ma'naviy olamini boyitishga, ularni yangi marralar sari ruhlantirib, tobora yuksalib borayotgan Yangi O'zbekistonimizning asosiy bunyodkorlari ekanini qalban his etishlariga erishishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Mayor

Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

Muqaddas burch

"Vatan – bu kindik qonimiz to'kilgan muqaddas tuproq". Vatan haqida men o'qigan maqolalarda, qatralarda deyarli shu jumlagacha duch kelaman. Vatan deganda ko'z oldimizga, birinchi navbatda, jonajon uyimiz va mahallamiz kelsa kerak. Albatta shunday. Inson yoshi katta bo'lgan sari Vatan so'zining ma'nosini to'laqonli anglab yeta boshlaydi va yana Vatan haqida o'ylaganda u tug'ilib o'sgan yurt, shahar, qishloqni hamma narsadan ortiqroq yaxshi ko'rishini his qila boshlaydi.

Misol uchun, atigi 3 kun yoki bir haftaga yashab turgan uyimizdan boshqa uzoqroq joyga ketsak, ko'p o'tmay uyimizni sog'ina boshlaymiz. Axir tug'ilib o'sgan xonadonimiz – bizning Vatan ichra kichik Vatanimiz sanaladi-da. Ana o'shanda biz shu Vatan bilan naqadar bog'liq ekanimizni anglab yetamiz. Aytishadi-ku, musofir bo'lmaguncha musulmon bo'lmaysan, deb. Zotan, bizning barcha yaxshi, yomon kunlarimiz, shirin xotiralarimiz, bizga aziz insonlar, bizga tanish va qadrdon ko'chalar, beg'ubor bolaligimiz o'tgan kunlar shu uy bilan bog'liq bo'lgani uchun qalbimizni sog'inch o'rtaydi. Ana shunday vaqtda ko'zimizga keng olam tor ko'rini boshlaydi, uyimizga, yaqinlarimiz davrasiga tezroq ketishni, ular bilan diydorlashishni istab qoladi ko'ngil. Ha, insonning kindik qoni tomgan maskani – bu uning

KO'ZIMGA TO'TIYO VATAN!

Vatani. Bu yerda biz o'zimizni barcha yerdagidan, erkinroq his qilamiz. Bu yerda qalbimiz tinch bo'ladi, ruhimiz orom oladi.

Yaqinda bir gap qulog'imga chalindi: "Insonga qayerda yaxshi bo'lsa, o'sha yer uning Vatani". Bu gapning mag'zini chaqish uchun ko'p o'yladim. Oxiri shunday xulosaga keldim: bu fikr xato. Chunki inson bu dunyodagi yagona ongli mavjudot va unda qalb bor. Inson hayvon emaski, uni o'z uyidan boshqa joyga olib borib boqsa, parvarishlasa u yer uning Vatani bo'lib ketaversa?! Yo'q, inson qayerda bo'lmasin, o'z tug'ilgan Vatani, qadrdon uyini hech qachon unutmaydi. Vatani uzoqda bo'lsa-da, hamisha uyini sog'inib, qo'msayveradi. Taqdirida o'zga mamlakatda umrining so'ngigacha yashab qolish yozilgan bo'lsa-da, qalbining bir burchagida Vatani bo'lgan muhabbat, sog'inch abadiy saqlanib qoladi.

O'ylashimcha, inson qancha bilimli va o'zligini tanigan, tarixi, dini-yu millatini yaxshi bilsa, shu insonning Vatanga bo'lgan munosabati, muhabbati shuncha yuqori bo'ladi. Bugun ko'pchilik vatandoshlarimizning asosan pul topish ilinjida chet ellarga ko'chib ketishni afzal bilayotgani, meni shunday fikrga kelishimga sabab bo'ldi. Yuragini faqatgina mol-dunyo to'plash hirs egallagan bunday kimsalarga Vatan so'zi begona. Ularning qalbidan vatanparvarlik hissi

yo'q. Ular faqat mol-dunyo to'plashni yashashdan maqsad deb biladi. Axir biz yashayotgan mana shu jannatmakon O'zbekiston tarixiga nazar tashlasak, shu yurt kelajagi, tinchligi, mustaqilligi va bir kaft tuprog'i uchun qanchadan qancha vatandoshlarimiz jon olib, jon berganlarining guvohi bo'lamiz. Qani endi hamma ulardan o'mak olsa, ulardek bo'lsa...

Hech o'zingizga savol berganmisiz, "Men Vatanim rivoji uchun nima ish qildim?" deya. Mening nazrimda inson o'zini o'zi rivojlantirishi yoki biror sohaning yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishi ham uning Vatan rivojiga qo'shgan hissasidir. Har kuni qilgan ishlarini tahlil qilish, o'z ustida ishlash va tanlagan sohasi bo'yicha yangi bilimlarga ega bo'lib borish va yakunda shu soha bo'yicha yangilik yaratish, yutuqqa erishish, shu yutuq orqasidan Vatani dunyoga tanitish, yurt rivojiga hissa qo'shish deyiladi.

Vatan haqida gapiraversak so'zlar, yozaversak siyoh-u varaqlar yetmay qoladi. Umuman olganda, bu so'zning ta'rifi bisyor. Ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan, ularning tabarruk qabrlari bor bu ko'hna zamin barchamizga birdek aziz. Uning har qarich yerini, bir kaft tuprog'ini eng asosiysi, mustaqilligini-yu tinchligini asrab-avaylash barchamizning muqaddas burchimizdir!

Durdonaxon ABDUMANNONOVA

Mulohaza uchun mavzu

MAKTABDAGI DAVOMAT: mas'uliyat kimning gardanida?



So'nggi hafta ichida ijtimoiy tarmoqlarda eng ko'p muhokamalarga sabab bo'lgan mavzu, maktablarga Milliy gvardiya xodimlarining jalb etilishi, xodimlarning davomat ishlari bilan shug'ullanishi bo'ldi. Internetda tarqalgan videoyozuvlarda xodimlar o'quvchi va o'qituvchilarga mas'uliyat haqida gapirayotgani aks etgan tasvirlarga ko'zingiz tushgan bo'lsa kerak.



Xo'sh, masala shu qadar jiddiymi yo jamoatchilik fikri va qarashida bo'rttirish holatlari bormi? O'zi Milliy gvardiya hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan maktablardagi davomat muammosi bilan shug'ullanuvchi maxsus ishchi guruh tuzilishiga sabab nimada?

Prezident Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 5-fevral kuni bo'lib o'tgan yig'ilishida o'tgan yili voyaga yetmaganlar tomonidan 3,5 mingta jinoyat sodir etilgani, 50 ming nafar bola muntazam ravishda maktabga bormayotganini aytdi.

"...Nima uchun hokimlar har haftada bitta maktabga borib, o'quvchilarning sharoiti va tarbiyasi bilan shug'ullanmaydi? Axir Bolalar masalasi bo'yicha milliy komissiyaga hokimlar mas'ul emasmi?" dedi Prezident.

Shuningdek, davlatimiz rahbari maktablardagi 2 000 ta inspektor-psixolog shtati Ichki ishlar vazirligidan Milliy gvardiyaga o'tkazilishi, Milliy gvardiya esa ikki oy muddatda o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali ularda "huquqbuzarliklarga qarshi immunitet"ni yaratish bo'yicha tizim joriy etishi bo'yicha topshiriq berdi. Shunga ko'ra, Milliy gvardiyaga Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan birgalikda "eng og'ir 1 000 ta maktabda davomatni yaxshilash tajribasini joriy etish" bo'yicha vazifa yuklatildi.

KIM NIMAGA JAVOB BERISHI KERAK?

Pedagog, "Xalq ta'limi info" loyihasi asoschisi Ulug'bek Po'latovning yozishicha,

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda maxsus ishchi guruh tuzilganidan so'ng Milliy gvardiya xodimlari har kuni maktablarga borib, davomat va o'quvchilarning bilim olishiga doir masalalar bilan shug'ullanayotgan ekan. Shu o'rinda savol tug'iladi: O'zi kim nimaga javob berishi kerak? Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi xodimi Azamat Kamolov o'z intervyularining birida aynan davomat masalasida maktab hududiga Milliy gvardiya xodimlarining kirishi mumkin emasligi, bu vakolat faqat inspektor-psixologlarda bo'lishini bildirdi. Shuningdek, ularning ta'lim jarayoniga aralashishi ham ko'zda tutilmagan.

– Inspektor-psixologlar tuzilmasi Milliy gvardiyaga o'tgach, 10 mingdan ortiq maktablarga xodimlar chiqqan, – deydi Azamat Kamolov. – Ularning hammasi malakali xodimlar bo'lgan deb kafolat berib bo'lmaydi. Chunki ijtimoiy tarmoqlarda buning aksini ko'rib turibmiz. Ya'ni o'zi malakaga ega bo'lmagan, quyi tizimdan chiqqan, deylik, oddiy qo'riqlash xizmati xodimi maktabga borib, o'zini xuddi maktab nazoratchisiday tutib, o'qituvchi faoliyatiga aralashib, qo'pol muomalada bo'lganlarini ijtimoiy tarmoqlarda ko'rdik. Shu sababli endi Milliy gvardiya uchun alohida tartib ishlab chiqilyapti. Unga ko'ra, faqat inspektor-psixologlarga maktabga kirishga vakolatli bo'ladi. Qolgan jalb qilingan xodimlar bundan buyon maktabga kirmaydi. Yagona tartib sifatida Milliy gvardiya tomonidan me'yoriy hujjat ishlab chiqiladi. Maktab rahbariyati mavjud davomat holatini biriktirilgan mas'ul xodim qo'lga beradi, u borib ota-onalar bilan ishlaydi. Ularning chegarasi shu yerda. Milliy gvardiya xodimlari dars jarayoniga kirishga yoki o'qituvchining nega kech kelayotgani, formada kelmayotgani bo'yicha so'roq qilolmaydi.

Shu o'rinda yana savol tug'iladi. Jarayonda ta'limga salbiy ta'sir bo'lib qolmaydimi? Azamat Kamolov shu xususda ham to'xtalib o'tdi:

– Salbiy ta'sir bo'lmaydi, chunki hech kimning bu jarayonda ta'limga aralashishi ko'zda tutilmagan. Tan olishimiz kerak, maktablarda xulqida, ruhiyatida yoki ota-onasi xorijda migrant bo'lib yurgan, ma'lum sabab bilan ajrashgan, ya'ni muqim bir qarovchiga ega bo'lmagan o'quvchilarimiz ham yo'q emas. Mana shunday bolalar bilan individual ishlaydigan, ularni ta'limga yo'naltiradigan inspektor-psixolog mutaxassislarga ehtiyojimiz bor. Ularning ish yuritish nizomi tasdiqlangan.

O'tkazilgan davomatlar "Davomat" reytd tadbirlaridek bo'ladi va bu doimiy xarakterga ega emas.

MILLIY GWARDIYA NIMA DEYDI?

O'zi umuman maktablardagi davomat masalasini hal qilish uchun Milliy gvardiyaning jalb etilishiga sabab nima edi? Vaziyat shu darajada jiddiy tus olgani bor haqiqatmi? Chunonchi, turli tashkilotlar yillar davomida maktab davomati muammosi bilan shug'ullangan. Jumladan, 2013-yilda prokurorlar mahalliy hokimliklar, ta'lim muassasalari va boshqa mas'ul idoralar bilan birgalikda bu masalaga javobgar bo'lgan. Keyinchalik bu muammo bilan profilaktika inspektorlari shug'ullana boshlagan va Maktabgacha va maktab ta'limi, Ichki ishlar, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirliklari, Yoshlar ishlari agentligi vakillari tomonidan "Davomat" reydlari o'tkazilgan edi.

Milliy gvardiya matbuot xizmati tashkilotning maktablar davomati muammosiga jalb etilishiga bir qancha sabablarni keltirib o'tar ekan, vaziyat jiddiyligi haqida yozadi:

"Milliy gvardiyaning vazifasi bolalar va ota-onalar bilan maqsadli, shu jumladan psixologik ish olib borish, "oila – mahalla – maktab" zanjiridagi barcha bo'g'inlarning sa'y-harakatlarini birlashtirish va nihoyat, bolalarning rivojlanishi va tarbiyasiga hissa qo'shadigan tadbirlar – ot sporti, kamondan otish, psixologlarning mahorat saboqlari, harbiy texnika ko'rgazmalarini tashkil etishdan iborat. Davomatni nazorat qilish orqali Milliy gvardiya bolalarning maktabga bormaslik sabablarini aniqlaydi va mavjud muammolarni bartaraf etish uchun bu haqda tegishli tuzilmalarni xabardor qiladi. Bolalar bilan Ichki ishlar vazirligidan o'tkazilgan professional psixologlar suhbatlashadi. Ularning doimiy ish joyi maktab bo'lib, u yerda faqat fuqarolik kiyimida bo'ladi".

Shuningdek, xabarda aytilishicha, o'quvchilarning maktabga bormaslik sabablari turlicha ekani, jarayon davomida bunga amin bo'lib borilayotgani keltirib o'tilgan. Unga ko'ra, maktablardan birining 8-sinfida 34 bolaning bor-yo'g'i 17 nafari darsga kelganini misol qilib keltiradi. Ota-onalar bilan o'tkazilgan suhbat jarayonida ma'lum bo'ladiki, ularning bir qismi farzandi uchun oddiy mavsumiy ust-bosh va o'quv qurollari sotib olishga puli yo'qligi sabab maktabga yubora olmayotganini aytishadi. Xabarda bu kabi

sabablarning bir nechtasi sanab o'tilar ekan, bu holatda Milliy gvardiya uchun asosiy narsa ana shunday bolalarga yordam berish ekanligi ta'kidlandi.

JAMOATCHILIK FIKRI QANDAY?

Ta'lim sohasi bo'yicha ekspert Komil Jalilovning ta'kidlashicha, darsga qatnashmaslik muammo, lekin jinoyat emas.

"Muammoning ildizi aksar hollarda yoki maktabdagi ta'lim sifatini bog'liq bo'ladi yoki oiladagi iqtisodiy, ijtimoiy sabablar tufayli bo'ladi. Demak, muammoning ildiziga yetish, oqibat emas, sababni hal qilish kerak – bu zinhor Milliy gvardiyaning (yoki boshqa harbiy strukturaning) ishi emas. Aksincha, bu Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining ishi. Agar o'quvchining maktabga kelmayotgani ortida oila bilan bog'liq vaziyat bo'lsa, ijtimoiy himoya organlarining ishi. Maktab – bolani qo'rqitib, tahdid bilan olib keladigan maskan emas, unda o'quvchi uchun xavfsiz, do'stona muhit bo'lishi kerak. Shundagina o'rganish jarayoni ro'y beradi. Maktabga kelmayotgan o'quvchilar bilan bola psixologiyasini, uning tilini tushunadigan, bola ishonadigan mutaxassis shug'ullanishi kerak", deb ta'kidlaydi u.

KASALNI DAVOLAGANDAN KO'RA UNING OLDINI OLGAN AFZAL

Hozirda maktab va boshqa ta'lim muassasalari, shuningdek jamoat joylarida elektroshokerlar, bita va kasketlar orqali bezoriliklar qilish, o'zganing mol-mulkiga yoki sog'lig'iga zarar yetkazish holatlari kuzatilmoqda. Biz bilgan o'sha qator rivojlangan davlatlarda voyaga yetmagan o'quvchi-yoshlar maktab hududida ommaviy otishmalar uyushtirib, aqlbovar qilmas xunrezliklarni sodir etmoqda. Xo'sh, bizda shu kabi holatlar sodir bo'lmisligiga kim kafolat bera oladi? Ha, bizda o'qotar qurollardan foydalanish taqiqlangan. Maktab o'quvchilarida qurol nima qilsin?! Lekin psixologiyasi o'zgargan bolaga jinoyat sodir etishi uchun aynan o'qotar qurol bo'lishi shart emas. Birgina o'tgan yil hisobida oladigan bo'lsak, jinoyat sodir etgan 3,5 ming voyaga yetmaganlarning 2 280 nafari maktab o'quvchisi ekani vaziyatning jiddiyligini bildiradi.

Zero xalqimizda bir naql bor: "Kasalni davolagandan ko'ra uning oldini olgan afzal".

Sherzod
EGAMBERDIYEV,
"Vatanparvar"

AYOL QO'MONDONLAR

millatimizning qahramon onalari

Shonli o'tmishimizda er qahramonlar yetarlicha bo'lgan, biroq tarixda shunday qaltis vaziyatlar bo'lganki, o'z-o'zidan ayol qahramonlar yetishib chiqqan. Ular o'zining aql-u zakosi va uddaburonligi bilan umumiy vaziyatni g'alaba tomonga burgan. Bunga massaget qabilasi malikasi Tomir Xotun (yunoncha *Tomiris* yoki *To'maris*), saklardan Zarina, Amir Temur davrida Bibixonim va asrimizga yaqin vaqtda Oloy malikasi Qurbonjon dodxoh kabilar misol bo'ladi.



Shunday vaqtlar bo'lganki, bu millat onalari yo erkaklarday kurashib qahramon bo'lgan yoki qahramon tug'gan. Nasl-nasabi pok, beklar urug'idan bo'lgan Salima bibi millatimizga ulug' so'z san'atkori Alisher Navoiyni, ajdodi Chingizxonga taqaladigan Qutlug' Nigorxonim esa buyuk shoir va qo'mondon Zahiriddin Muhammad Boburni hadya qilgan. Shu ma'noda bu onalarni qahramon deyish mumkin.

Tarixiy manbalarda Markaziy Osiyoni arablar fath qilishidan avval bir qancha qo'mondon xotinlar bo'lgani haqida ma'lumotlar bor.

Keling, yaqin tarixdan misol keltiraylik. Tarixda "Bosmachilar" tamg'asi yopishtirilgan Turkiston ozodligi kurashchilari orasida qahramon ayollar talaygina bo'lgan. Hayratlanarlisi shundaki, ham o'zi, ham o'g'lini yurt himoyasiga bag'ishlagan onalar. Bunga Mehrixon qo'rboshi yaxshi misol bo'ladi. U o'g'li Muhiddinbekka yaxshi ibrat bo'lgan.

Yoki Qurbonjon dodxohni eslang. U o'g'li dorga osilayotganini ko'rib turib, farzandiga dalda bergan. Qaysi ona bu holatga chiday oladi? Yana Xolxo'ja Eshon va uning singlisi Oyshaxon qo'rboshi haqida tarixiy manbalarda ma'lumotlar bor.

Rahmatli, taniqli yozuvchi Bahodir Murod Ali o'zining "Ko'kto'nlilar" asarida ajoyib voqeani keltiradi. Unda qizil askarlar qo'lga asir tushib qolgan qo'rboshini o'ldirmoqchi bo'lgan sahnani eslang. Ayol uzoqdan qarasa, erini qizil askarlar turtib-turtib uyiga olib kelayotgan bo'ladi. Shunda ayol "Nega erimga qo'l ostidagi yigitlar bunday beadablik qilyapti?" deb hayron bo'ladi. Qarasa, uning yigitlari emas - begonalar. Eri bukchayib, bir xonaga kirib, sandal oldida bukchayib yotadi. Shunda ayol nima qiladi, bilasizmi? Bu ahvolga tushganingdan ko'ra o'lganing yaxshi, deb erining boshiga bolta ko'tarib kiradi... Va o'ylaydi: "Odamzod o'lishidan oldin

jussasi kichkina bo'lib qolarkan..." Va "to'shakda yotgan" erini chopadi! Chopib bo'lib qarasa - eri yo'q. Ayolning eri darchadan qo'shni hovliga o'tib, qochib ketgan bo'ladi. Shunda ayol xursand bo'ladi. "Yaxshiyam yo'q ekan!" deydi. Bu yerdagi dramatik holatni ko'z oldingizga keltiring!

Yana Farg'onada, xususan, Oltariqda Shakarxon qo'rboshi degan chapdast ayol bo'lgan. Bunday misollar juda ko'p. So'zimiz boshida aytganimizdek, ayol qahramonlarni qaltis vaziyatlar paydo qilgan.

Xulosa qilib aytganda, kelajakda ana shunday qaltis vaziyatlar bo'lmasin va nozik jins vakillari bizga faqat qahramonlar, yurtimiz koriga yaraydigan o'g'il-qizlarni tarbiyalayversin, deymiz.

Nodir TURSUNBOYEV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
katta o'qituvchisi

Oila gultoji

Bugun yurtimizda ayollarning ham siyosiy, ham ijtimoiy nufuzini ko'tarish, oila va jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlash uchun keng imkoniyatlar yaratish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilyapti. Shu bilan birga, ayol-qizlarimiz turli sohalarda samarali mehnat qilib, oila, mahalla, el-yurt o'rtasida tinchlik, o'zaro hamjihatlik va mehr-oqibat muhitini mustahkamlashga katta hissa qo'shib kelmoqdalar.

Ayolning oiladagi o'rni hamda mavqeyi beqiyos, chunki u oila, farzandlari va ular orqali jamiyat hayotida ishtirok etadi. Oilada ayol, avvalambor ona, qaynona, qiz, opa-singlimizdir.

Qadimdan ayolni e'zozlagan davlat gullab-yashnagan, ravnaq topgan. Ayolni ardoqlagan oila esa bu dunyoning jannatiga erishgan. Sohibqiron Amir Temurning: "Ayollarga imkon qadar ili muomalada bo'lishga harakat qildim", degan purma'no so'zlari asrlar oshsa-da, o'z mohiyatini yo'qotmagan.

Millat tarbiyachisi bo'lgan o'zbek ayolining o'ziga xosligi, avvalo, erga hurmati, hayosi, bolajonligi, oilaga sadoqati, sabr-bardoshidan ko'rinadi.

Biz erkin va farovon hayot barpo etishdek, ulug' maqsad sari yo'l olar ekanmiz, Vatan ravnaqiga hissa qo'shish uchun oilada farzandlarga to'g'ri ma'naviy-axloqiy tarbiya

berish maqsadga muvofiqdir. Bunda, avvalo, otaning mas'uliyati talab qilinadi. U oila boshqaruvini, ayoli va farzandlarining tarbiyasini e'tiborsiz qoldirmasa bas. Otalar oila rahbari sifatida onaga ko'rsatma beradi va farzandlar tarbiyasi uchun qulay sharoitlar yaratib beradi. Onalar esa bolalarni boadab qilib tarbiyalash, buning uchun, avvalo, o'zlari ularga o'rnak bo'ladigan darajada axloq va odob sohibasi bo'lishlari talab etiladi. Zero qush uyasida ko'rganini qiladi.

Oila jamiyatning dastlabki bo'g'ini ekan, yoshlar avvalo, tarbiya sabog'ini uyda, ona va buvilaridan o'rganadi. Oilada bolalar aqliy, jismoniy va ma'naviy jihatdan kamol topadi, dunyoqarashi shakllanadi. Shunga ko'ra, ayolga oilada bolalarni tarbiyalash, mustaqil hayot va mehnatga tayyorlash bo'yicha katta mas'uliyat yuklangan.

Fikrimiz yakunida o'rta asrning atoqli mutafakkiri shayx Sa'diy Sheroziyning so'zlarini keltirsak: "Ilm - ayol uchun ziynat. Aqlini nodonlikdan xolos etgan har bir ayol nomus, izzat, ayollik qadrini tushunib yetadi. Bunday ayol hech bir ishda adashmaydi. Ilmsiz ayol esa bola tarbiyalashda turli xatolarga yo'l qo'yadi".

Ayol millat tarbiyachisi ekan, uning ma'naviyati kelajak taraqqiyotini hal qiluvchi yoshlarni voyaga yetkazish va ularni komil inson darajasiga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oqilalik, pokizalik timsoli bo'lgan onalar ma'naviyatining asosini, madaniyatimiz mazmunini tashkil qiladi.

Malika MIRZAYEVA,
Xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning
oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha
yetakchi mutaxassis

MILLAT TARBIYACHISI



ASOSIY MAQSAD

YOSHLARNI KASB-HUNARGA O'RGATISH



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov xizmat safari bilan Buxoro viloyatida bo'ldi.



Tashrif davomida viloyat kengashi tasarrufidagi Buxoro tumani o'quv sport-texnika klubining yangidan barpo etilayotgan binosini ko'zdan kechirdi. So'ngra ushbu tumandagi "Gala-Osiyo" MFYda "Mahalla yettiligi" vakillari bilan suhbatda bo'lib, "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasalarining avtomototransport haydovchilarini tayyorlash kurslarida "CE" toifalari bo'yicha o'qitilgan fuqarolar xoriyga vaqtinchalik mehnat faoliyati bilan shug'ullanish uchun yuborilishi mumkinligi haqida tushuntirish ishlarini olib bordi.

Shuningdek, "Vatanparvar" tashkiloti rahbari Buxoro shahrida bo'lib, u yerda yoshlar o'rtasida pnevmatik quroldan o'q otish bo'yicha o'tkazilgan O'zbekiston kubogining birinchi bosqich musobaqasi g'oliblari va sovrindorlarini taqdirledi.

Tadbir doirasida Husan Botirov tashkilotning Buxoro viloyati kengashi tasarrufidagi texnik va amaliy sport turlari markaziga 2 dona "Cobalt" rusumli avtomobil, Qorako'l tumani o'quv sport-texnika klubiga 2 dona "Isuzu" yuk mashinasi, Vobkent tumani o'quv sport-texnika klubiga 1 dona "KamAZ" yuk mashinasi hamda Jondor tumani o'quv sport-texnika klubiga bir dona "Damas" rusumli avtomobilni tantanali ravishda topshirdi. Tadbirda so'zga chiqqan H. Botirov endilikda ushbu zamonaviy o'quv transport vositalari tashkilot tizimida haydovchilar tayyorlash sifatini yanada oshirishga xizmat qilishini ta'kidladi.

Keyingi kuni "Vatanparvar" tashkiloti rahbari Surxondaryo viloyatida bo'lib, Boysun, Jarqo'rg'on, Denov, Uzun tumanlari o'quv sport-texnika klublari va Denov avtomobil

maktabiga bittadan "Gentra" rusumidagi yangi avtomobillarni hamda Termiz avtomobil maktabiga "Isuzu" yuk mashinasi va "Gentra" avtomashinasini tantanali ravishda topshirdi.

"Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi uch kunlik xizmat safari davomida Buxoro va Surxondaryo viloyatlari kengashlarining yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb mutaxassislarini tayyorlash hamda moliyaviy-xo'jalik yo'nalishlari bo'yicha faoliyatlarini tahlil qilib, muassasalar rahbarlariga yuqori samaradorlikka erishish bo'yicha tegishli topshiriqlarni berdi.

"Ipak yo'li kubogi – 2024"

XALQARO MUSOBAQADA

O'ZBEKISTONLIK SPORTCHILAR G'OLIB BO'LDI



Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumanidagi "Qizilmozor" mototrassasida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan sportning motokross turi bo'yicha O'zbekiston chempionati va birinchiligining 1-bosqichi hamda "Ipak yo'li kubogi – 2024" xalqaro musobaqalari o'tkazildi.

Respublikamizning turli hududlari va oltita xorij davlatidan bellashuvlarda ishtirok etgan 120 dan ziyod sportchi turli hajmdagi motosikllarda belgilangan masofalarni bosib o'tib, marra sari harakatlandi.

Qizg'in va murosasiz kechgan poyga bahslari quyidagi natijalar bilan yakunlandi.

Birinchilikning 1-bosqich musobaqasi:

"65 sm³" sinfida:

1-o'rin: Artur Bergman (Qozog'iston)
2-o'rin: Bahrom Bahodirov (Buxoro v.)
3-o'rin: Jobir Rahmatullayev

(Namangan v.)

"85 sm³" sinfida:

1-o'rin: Oybek Qobuljonov (Buxoro v.)
2-o'rin: Saidbobojon Saitov (Navoiy v.)
3-o'rin: Zufar Bahodirov (Buxoro v.)

"125 sm³" (YU) sinfida:

1-o'rin: Artyom Tambovskiy (Qozog'iston)
2-o'rin: Elbek A'zamqulov (Buxoro v.)
3-o'rin: Baxtovar Jalilzoda (Tojikiston)

Jamoa hisobida:

1-o'rin: Buxoro viloyati
2-o'rin: Navoiy viloyati
3-o'rin: Toshkent shahri

O'zbekiston chempionati

"125 sm³" (K) sinfida:

1-o'rin: Emran Ablyazov (Toshkent v.)
2-o'rin: Doston A'zamqulov (Buxoro v.)
3-o'rin: Aleksandr Donskix (Qozog'iston)

"500 sm³" sinfida:

1-o'rin: Nikita Karnauxov (Qozog'iston)
2-o'rin: Andrey Sazonov (Toshkent v.)
3-o'rin: Kirill Gavrilov (Qozog'iston)

"750 sm³" sinfida:

1-o'rin: O'tkir Berdiyev, Mehriziyod Berdiyev (Buxoro v.)

2-o'rin: Asror Hayitov, Adham Temirov (Navoiy v.)
3-o'rin: Igor Sichyov, Bazin Vladislav (Toshkent sh.)

"ChZ" sinfida:

1-o'rin: Marsel Galiyev (Qoraqalpog'iston R.)
2-o'rin: Shevket Suleymanov (Toshkent v.)
3-o'rin: Izzat Qobilov (Navoiy v.)

"Faxriylar" (B) sinfida:

1-o'rin: Rushan Ibragimov (Surxondaryo v.)
2-o'rin: Yegor Bochkaryov (Toshkent sh.)
3-o'rin: Zoir Qurbonov (Qashqadaryo v.)

"Faxriylar" (A) sinfida:

1-o'rin: Aleksandr Kondrashev (Toshkent sh.)
2-o'rin: Anvar Alimov (Andijon v.)
3-o'rin: Baxtiyar Xudayberganov (Qoraqalpog'iston R.)

Jamoa hisobida:

1-o'rin: Toshkent viloyati
2-o'rin: Buxoro viloyati
3-o'rin: Toshkent shahri

Shuningdek, Italiya, Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston mamlakatlarining 25 nafar sportchisi va ham yurtlarimiz bellashgan "Ipak yo'li kubogi – 2024" xalqaro musobaqasi quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

"125 MX-2" sinfida:

1-o'rin: Emran Ablyazov (O'zbekiston)
2-o'rin: Aleksandr Donskix (Qozog'iston)
3-o'rin: Bogdan Saturyan (Rossiya)

"500 MX-1" sinfida:

1-o'rin: Nikita Karnauxov (Qozog'iston)
2-o'rin: Andrey Sazonov (O'zbekiston)
3-o'rin: Kirill Gavrilov (Qirg'iziston)

Jamoa hisobida:

1-o'rin: O'zbekiston
2-o'rin: Qozog'iston
3-o'rin: Rossiya

G'oliblar va yuqori o'rinlarni qo'lga kiritgan sportchilar "Vatanparvar" tashkilotining diplom, medallari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

Ijtimoiy tarmoqlarda shunday fikrga ko'zim tushib qoldi: "O'zbek xalq ertaklari tekinxo'rlikka, ochko'zlikka, bir lahzada boyib ketishdek xomxayollarga o'rgatadi..." Shu ertaklarni finch qo'yishsa bo'lardi, deya ko'nglimdan kechdi. Ammo oradan biroz fursat o'tib, yosh hamkasbim Dilnoza fig'onidan dud chiqib, rangli bir kitobchani ko'rsatib qoldi. "Qarang, ertaklari biram g'alati, nimani targ'ib qilayotganini anglash qiyin. Kitobchani nomi "Ur to'qmoq", ammo unda shu nomli ertakning o'zi yo'q. O'g'limga olgan edim, o'qib bermasammi, deb turibman..."



Ertakmi yoki aljirash



Avvaliga e'tibor bermadim, lotin yozuvida bo'lganligi uchun vaqtimni qizg'andim. Tan olishim kerak, bu yozuvda o'qish tezligim past. Kitobcha ancha vaqt ish stolimda yotdi. Nihoyat, shunday kitobchalarga o'z oilamda ham ehtiyoj paydo bo'lganida uni varaqlab ko'rdim...

Insoniyatning eng buyuk kashfiyoti YOZUV! Yana bir buyuk kashfiyoti KITOB! Bu ikkisining imkoniyatlari,

kuchi shu qadar zo'rki, tamaddunlarni o'z izmiga sola oladi. Oqillik bilan foydalanganda insonni yuksaklarga olib chiqadi. Vayronkorlik ham uning ortidan kelishi ayondir.

"Ur to'qmoq" oddiygina ertak kitobcha. Rangli rasmlar bilan bezak berilgan, harflari ham yiriklikka, ko'zingizni charchatmaydi, zeriktirmaydi. Muqovaning tepasida "O'zbek xalq ertagi" deb yozilgan. Ammo undagi ertaklar mazmuni... Ular nimani targ'ib qilyapti?! "O'zbek xalq ertagi" degan qutlug' nom ostida berilgan, bu almoyi-aljoyi, ba'zi joylari dostonlardan ko'chirib olingan aralash-quralash yozuvlarni bolalarimizga ertak deb tutqazishdan maqsad nima?!

Birinchi ertakning nomi "Zolim xon bilan cho'pon"

O'qiyimiz: "O'tgan zamonda bir zolim, qonxo'r xon bo'lgan ekan. Xonning qirq xotini bo'lib, bitta ham farzand ko'rmagan ekan. Xon umrining oxirida eng kichik xotinidan bir o'g'il ko'ribdi".

Umrining oxirida degan joyini siz ham o'ladigan paytida deb tushundingizmi? Umrning oxirini yana qanday tushunish kerak?

Yo'q, hali umrining oxiri emas ekan, chunki bolasi voyaga yetibdi.

O'qiyimiz: "Kunlardan bir kun shaharning chetidagi bir o'rmonda yovvoyi to'ng'iz paydo bo'lib, ekinlarni payhon qilib, xalqqa ko'p zarar yetkazibdi. Hech kim to'ng'izni ushlolmabdi. Aksincha, to'ng'iz o'rmonga borgan odamlarni halok qilar ekan".

Endi e'tibor bering, hozirgi zamonning bolasi to'ng'iz degan jonivorni o'rmonda ko'rmagandir, (o'rmon borligining o'zi katta gap) ammo yovvoyi tabiat haqida kanallar har bir jonivor haqida bir necha soatlik ko'rsatuvlar tayyorlab, tomoshabinga yetkazib berib qo'ygan bir paytda "odam o'ldiradigan to'ng'iz" bilan bironi hayratga solib bo'lmaydi-da. Yo aldagani bola yaxshi, qabilida ish tutildimikan?

Bolalarga atalgan ertakning shafqatsizligini ko'ring: "Yosh yigit (Qari yigit ham bo'ladimi? Yigit yoshlikni anglatishi yetarli emasmi?) o'rmonga borib ikki kecha-yu ikki kunduz to'ng'iz bilan olishibdi (to'ng'iz bilan-a, yopiray). Uchinchi kuni to'ng'iz uni ezg'ilab, majaqlab tashlabdi. U halok bo'libdi".

Buni eshitayotgan bolaning ahvolini tasavvur qiling?!

Davomi yana qiziq. Cho'pon qorni teshik dutor yasabdi. Qorni teshik dutor ham bormi? Dutor chalayotgan cho'pon?.. Qarib balki, ezma bo'lib qolgandirman. Ammo dutor chaladigan cho'ponni aqlimga

sig'dira olmadim. Cho'ponlar ertaklarda nay chalardi, chanqovuz chalardi...

Ertakda ezg'ilash, majaqlashdan so'ng "kishilarning qornini yorib, qo'rg'oshin quy"ish aytiladi. Yo'q, harqalay, dutorning teshigiga qo'rg'oshin quyiladi.

Dahshatlar "Qaysar odam qismati"da davom etadi.

O'qiyimiz: "Dam olayotib ko'zlari uyquga ketibdi. Birdan ulardan ikkitasi seskanib uyg'onib ketibdi. Qarasalar, yonlaridagi sheriklarini ilon yutayotgan ekan. Ular tezda u kishini uyg'otishibdi va oyog'idan boshlab ilon yutayotganini unga aytishibdi. Ikki do'st undan so'rashibdi:

– O'rtoq, ilonni o'ldiraylikmi?"

Nima deysiz, ilon yutib yuborayotgan kishining javobini yozaymi yoki yozmayinmi? Yozaymi? O'qing, unda:

– Yo'q o'ldirmanglar. Yutaversin-chi, – debdi u kishi".

Bunday javob beradigan odam qaysar emas, ruhiy nosog'lom bo'ladi! Shunday qilib ertak ilonning odamni yutishi-yu, so'ng daraxtga suykalib yutgan odamining suyaklarini qisirlatib sindirishi bilan yakun topdi. Shu joyida hozirda juda urf bo'lgan dahshatdan ko'zlari olaygan belgi qo'ysa bo'ladi (hazil, albatta).

Navbatdagi ertakning nomi "Botir echki". **O'qiyimiz:** "...bechora echkiga har haftada bir kun dam berishar ekan. Echki shu dam oladigan kuni bo'shalib borib, erkin tirikchilik qilarkan".

Echkiga dam olish kuni berilishi... Ha, endi ertaklar ham zamonga moslashadi-da. Dam olish kuni bo'lsa, dam olish kuni-da, endi ho'kizdan eshiting: "He, bolalar, hafta ishladik, ertaga shanba bo'lsa, bugun bir hordiq chiqarib, sal tiklanib olay deb kelyapman".

Ho'kizni dardini tinglaymiz: "– Dunyoning g'am-g'ashidan chiqdim. (Buni bolaga qanday tushuntirasiz? O'zingiz tushundingizmi?) Sahardan to namozshomgacha ishlaysan, ancha-ancha yerni haydaysan, kech kirib juda darmoningdan ketganingda qo'shdan chiqaradi, o'lganing ustiga ko'mgan deganday ("o'lganning ustiga tepgandek" degan iborani bilar edik, bunisi... bilmadim)".

Dam olish kuni bor echki, hasratidan chang chiqadigan ho'kizni bir tomonga surib qo'yamiz. Navbat yirtqich hayvonlarga. **O'qiyimiz:** "Bular tutun chiqqan yerga borib qarashsa, bu joy barcha vahshiy hayvonlar o'tiradigan joy ekan. Bular shu yerda to'planib olib, gap yeyishar ekan".

Bunisiga nima deysiz? Ey, siz, so'zni o'yin qilayotganlar, buni bolalarga qanday taqdim qilyapsiz? Qanday vijdon bilan? Ertak to'qish har narsani aljirash degani emas-ku! Ertaklar ezgulikka yetaklar, degani qayerda qoldi?

Bolaning toza ongini nimalar bilan to'ldirmoqchisiz?

"Har kimning bolasi o'ziga shirin" degan chuchmal ertak hatto tilga olishga arzimaydi. Yana undagi Nig'matulla degan ismni aytmayisizmi. Hayf shu chuchmallikka bunday ism.

Yana bir ertakning nomi "Oyjamol bilan kal". Bolalar juda kamdan kam hollarda o'zlariga o'xshamaydigan tengdoshlariga teng munosabatda bo'ladilar. Shafqatsizlik bilan laqab qo'yadilar, bir-birlariga. Bu juda-juda xunuk holat, tarbiyasizlikning bir ko'rinishi. Bunda mana shunaqa ertaklarning ham ta'siri bo'lsa kerak. Chunki ertakning bosh qahramonlaridan biri "podachi kal". Hamma unga shunday murojaat qiladi. Bu ismni, tahqirli laqabmi? Albatta, tahqirli laqab! Demak, "Hoy, kal" deb murojaat qilish mumkin ekan. Ertakdan shu xulosaga kelinyapti. Podsho qizining shartlarini bajargan kishi "podachi kal"!

Shu ertakda yana bir "noyob topilma"ga ko'zim tushdi. Nima ekan, deysizmi? "Podshohvachchalar"(!) degan so'z. Umrin bino bo'lib bunaqa so'zni eshitmagan ekanman. Shahzodalarni bilaman, podshohzodalarni eshitganman, ammo "podshohvachchalar"... tilim lol.

Aziz o'quvchi, farzandingizga go'zal niyatlar bilan taqdim qilayotganingiz kitoblarni avval o'zingiz o'qib chiqing! Vaqtingizni qizg'anmang! Har xil ertakka o'xshab ketadigan, ertak deb taqdim qilingan aljirashlardan ularni ehtiyot qiling! Bolaning xotirasi oynaday tiniq bo'ladi, kichikligidan eshitganlari, o'qiganlari xuddi toshga o'yilgan bitiklar kabi uning xotirasida saqlanib qolishini unutmang! Ularga vaqt sinovlaridan o'tgan asl asarlar, asl kitoblarni tuhfa qiling!

Yuqorida "Ur to'qmoq"ni rangli rasmlar bilan bezalganini aytib o'tdik. Rasmlar orasida, aniqrog'i, kitobchani 54-betida eshikka teskari o'tirgan qariya tasviri bor. Bu rasmdan maqsad nima ekanligini, rosti, men anglolmadim. Balki bir ezgu maqsadni bildirar. Biroq bolalarni chalg'itishga hech kim haqli emas. Hatto bu qiziqarli va kulgili ertaklar uchun ishlangan bo'lsa ham. Bolalar eshikka teskari o'tirg'izish, bu eng tahqirli jazo turi ekanligini (o'tmishda qolgan bo'lsa ham) bilishlari kerak.

Aziz kattalar, bola degani aqlsiz mavjudot emas! Va ertaklarda hamma narsa bo'lishi mumkin emas! Aql va zakovat, donolik, ibrat, mardlik, jasorat, yurtsevarlik, sadoqat, yaratuvchanlik, mehnat, sevgi-muhabbat aks etishi lozim.

Inobat IBROHIMOVA,
"Vatanparvar"

Elmurod aka sovg'a-salomlar bilan xonadoniga kirib kelganida, uni bir uy yaqinlari kutib oladi, deb hech o'ylamagandi. Harbiy sohadan iste'foga chiqqan ofitserning kayfiyati ko'tarildi.

- Kelinglar, mehmonlar, kelinglar, - jigarlari bilan bir-bir salomlashishga tutindi u.

- Pensiya yoshiga yetganingiz muborak bo'lsin, akajon, - tabriklay ketdi singillari Marg'uba va Marhabo.

- Podpolkovnik Elmurod Otajonov, bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor... - hazil aralash qutlovni davom ettirdi ukasi Jamshid.

- Harbiylar erta pensiyaga chiqishadida, Elmurodni qaranglar, qirchillagan yigitday, - ukasiga quchog'ini ochdi Bekmurod aka. - Hali el-yurtga ko'p foydasi tegadi uning...

Harbiy Ustoz

Yaqinlarning davrasidagi samimiy suhbatlar boshqacha-da, yayrab ketadi odam. Elmurod aka jigarlari bilan uzoq chaqchaqlashib o'tirdi. Ular uy-uylariga tarqalganida tun yarimlab qolgandi. Shunday bo'lsa-da, Elmurod aka uxlashga shoshilmasdi, to'g'rirog'i, ko'ziga uyqu kelmasdi. O'zgacha tuyg'ular girdobida divanga yastanib uzoq o'tirdi. "Nahot ertadan xizmatga bormasam. Endi barvaqt turish, harbiy libosda qadni tik tutib xizmatga o'tlanish yo'q, - xayolidan o'tkazdi u. - Akam aytganidek, hali kuch-g'ayratim bor, o'zimga mos biror ish topilib qolar".

- Dadasi, dam olsangiz-chi, xayol surib o'tirishingizni qarang, charchamadingizmi? - erini mehribonchilik ila tergan bo'ldi Vasila opa. - Rosa xizmat qildingiz, ertadan uyda qolaman, deb tashvishlanmasangiz ham bo'ladi.

- Sendan hech narsani yashirib bo'lmaydi, Vasila. Dilimdagi hamma narsani o'qiy olasan.

- Albatta, o'ttiz besh yildan buyon birga yashayman-u, bilmaymanmi? Siz ikki-uch oy dam oling, keyin o'zingizga mos biror joydan ish topilar. Erkak ko'cha odami, deb shuni aytishar ekan-da. Hozirdan uyda qolishni istamayapsiz.

- To'g'ri aytasan, onasi, buyog'ini vaqt ko'rsatadi. Zahmatli xizmatdan so'ng dam olish ham kerak...

- Onasi, qayerdasan?

- ko'chadan shoshilib kirib kelgan Elmurod akaning kayfiyati ko'tarinki edi.

- Uydamsan?
- Qayerda bo'lardim, xo'jayin, uydaman, - oshxonadan chiqib keldi Vasila opa. - Tushlik tayyorlayotgandim. O'g'illaringiz ham o'zingizga o'xshab harbiy sohani tanladi. Ikkita kelin oldim, ikkisi ham uzoqda. Yangi kelin bo'lib, hamma ishni o'zim qilyapman-da.

- Ha, omon bo'l, boringga shukur, xotinjon! O'g'il-qizlarimiz oldimizda bo'lmasa ham oilalari bilan tinch, el xizmatida. Hali keksayib qolganimiz yo'q, o'zimizni o'zimiz uddalaymiz.

- To'g'ri aytasiz, bolalar bilan birga yashaydigan kunlar kelar. Xotinjon deganingizga qaraganda, kayfiyatingiz ko'tarinki, tinchlikmi dadasi?

- Suyunchi ber, bir emas ikki joydan ishga taklif qilishyapti.

- Yo'g'eee, darrov ishga chiqib ketasizmi, bir oy ham dam olmadingiz-ku. Birga sayohatlarga chiqarmidik degandim.

- Hammasi yaxshi bo'ladi, xotin, sayohatlarga ham chiqamiz, ammo hozir uyda qolgim yo'q, ishlamoqchiman. El ichida bo'lganga nima yetsin.

- Qanday ishlar ekan?

- Biri mahalla fuqarolar kengashida ishlashga, ikkinchisi maktabda o'qituvchilikka.

- Mahallada ishlashga rozi bo'lgandirsiz? Maoshi yaxshi, maktabdan ko'ra tinch.

- Yo'q, maktabda yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchiligini tanladim.

- Dadasi, nega bir og'iz men bilan maslahat qilmadingiz?! - xunobi oshdi Vasila opaning. - Maktabda ishlaganman, bilaman, bolalar bilan ishlash oson emas, qiyinalasiz.

- Qiyinchiliksiz ishning o'zi yo'q. Harbiy malakamning yoshlarga mos tomonlarini o'rgataman...

Ko'p o'tmay, Elmurod aka maktabda faoliyat boshladi va harbiy ustoz degan nom oldi.

- Najmiddinov, seni tushunmadim, - darsga kech kelgan o'quvchiga tanbeh bera ketdi Elmurod aka, - "Vatan mardlari" guruhiga bosh bo'la turib, uchinchi marotaba darsga kech qolib kelyapsan.

- Uzr, ustoz, shunday bo'lib qoldi.

- O'tgan gal ham xuddi shunday deganding. Respublika miqyosidagi katta tanlov oldida turibmiz. Ikki haftadan so'ng kuchli jamoalar bilan bellashasiz. Sen bo'lsang... Mayli, joyingga o'tir, darsdan keyin gaplashamiz...

- Qani, gapir-chi, Rasul, kech qolayotganing sababini eshitaman, - darsdan so'ng o'quvchisi bilan dildan suhbatlashishni istadi Elmurod aka. - Tanlovlarda yuqori natijalarni qo'lga kiritib respublikaga chiqdik. Bu yutuqlarda sening katta hissang bor. Oldimizda shunday katta bellashuv turganida, nega endi loqayd bo'lib qolding? Darsga kech kelasan, ketishga shoshilib turasan, buning sababi nima?

- Ustoz, meni kechiring, bu xatoni qayta takrorlamayman. Vaqtdan unumli foydalanishga harakat qilaman.

- Tushunmadim, qanday vaqt haqida gapiryapsan, oilangga yordam berish uchun biror joyda ishlayapsanmi?

- Yo'q... faqat... mahallamizda yolg'iz yashaydigan Madamin aka degan keksa otaxon bor. Kuch-quvvatdan ketib, sekin harakatlanadigan bo'lib qolgan. Shunga har kuni kirib, biroz qarashaman.

- Nima, mahalla yordam bermayaptimi? Balki, qarindosh-urug'lari bordir?

- Bilishimcha, yolg'iz o'g'li dom-daraksiz yo'qolgan ekan. Meni o'g'luga o'xshatib, maktabdan qaytishimni kutib turardi, gaplashishni istardi. Ba'zida uy ishlariga qarashib turardim. Mahalla yordam berib turadi. Keksalari uyiga joylashtirmoqchi bo'lishgandi, istamadi. Kecha-yu kunduz o'g'lining yo'lga ko'z tikib o'tiradi.

- Shunday degin, - o'ylanib qoldi Elmurod aka.

- Unda barchamiz birga o'sha otaxonni ko'rgan boramiz. Balki, navbati bilan xabar olib turishni rejalashtirarmiz. Biroq tanlovga tayyorgarlikni pasaytirmasligimiz kerak, Rasul. Respublikada birinchi o'rinni olishimiz shart! Tushunarlimi, Najmiddinov!

- Xuddi shunday, ustoz! - ko'tarinki kayfiyatda, javob qaytardi Rasul.

- Aytganingizdek, ertadan tayyorgarlikni kuchaytiramiz...

Harbiy ustoz so'zida turdi. Ertasi kuni tanlovga tayyorgarlikdan so'ng o'quvchilar bilan otaxonni ko'rgan borishdi.

Ixchamgina qarovsiz hovli, nuray boshlagan imorat kimsasiz xonadonni eslatardi. Madamin aka, ularni ko'rib xursand bo'ldi. O'quvchilar ustozlari boshchiligida hovlini tartibga keltirishdi. Elmurod aka xonadon sohibi bilan tanishuv asnosida stol ustidagi rasmga e'tibor qaratdi. Yigirma besh yoshlardagi kulib turgan yigit Madamin akaga juda o'xshab ketardi. Qizig'i, bu yigit Elmurod akaga tanish ko'rindi.

"Bu yigitni qayerda ko'rgan bo'lishim mumkin", o'ylay boshladi u. "To'xta, bu ukam Jamshid bilan institutda birga o'qigan Sadriiddin-ku. Jamshid bilan do'st tutinib, bir necha marta uylarida mehmon bo'lgan. Bir hafta avval shu haqda gaplashgandi. Oliyog'ini bitirib, endigina yaxshi vazifada ish boshlagan yigit, daf'atandan yo'qolib qolgandi. Ukasi uni tirik ekanini, 15 yildan buyon Rossiyaning qaysidir shahrida yashab yurganini, xotirasini yo'qotganini aytgandi. Demak, uning dushmanlari bo'lgan. Buning tagiga yetish kerak", - qat'iy xulosaga keldi Elmurod aka.

- Madamin aka, o'g'lingiz juda o'zingizga o'xshar ekan, oti nima? - taxmini tasdig'ini topish uchun so'radi undan.

- Sadriiddin! - ovozi qaltirab chiqdi otaxonning. - Bolam ertalab ishga chiqib ketganicha, bag'rimga qaytmadi. 15 yilki, yo'lga ko'z tikaman.

- O'g'lingiz bilan tez orada ko'rishasiz, umidingizni uzmang, aka. Ungacha mana bu olovqalb yigitchalar bilan xonadoningizda tez-tez mehmon bo'lib turamiz. To'g'rimi, Vatan mardlari?

- Xuddi shunday! - harbiy ustozlariga harbiychasiga javob qaytarishdi o'quvchilar.

- Ko'nglimni ko'targanlaring uchun hammalaringga katta rahmat!..

Elmurod aka fursat o'tkazmay, izquvarlikka tushib ketdi. Darhol ukasi Jamshid bilan ko'rishdi. Sadriiddin qayerda, qaysi shaharda, u haqdagi ma'lumotni kimdan olgani, uni qanday topsa bo'ladi. Ko'p o'tmay, Jamshid akasining sa'y-harakati bilan Sadriiddin tomon yo'lga otlandi...

Iste'fodagi podpolkovnik Elmurod Otajonov boshchiligidagi "Vatan mardlari" otryadi harbiy-vatanparvarlik ruhidagi respublika tanlovida mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Quvonarli yana bir yangilik Elmurod aka sabab Madamin akaning o'g'li bag'riga qaytdi. Oylar o'tib, ushbu xonadonda "To'ylar muborak" sadosi yangradi. Harbiy ustoz esa hamon el xizmatida.

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"



Qilichbozlik

Bahraynda o'smirlar va yoshlar o'rtasida qilichbozlik bo'yicha Osiyo chempionati bo'lib o'tdi. Tarkibidan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakillari ham o'rin olgan O'zbekiston terma jamoasi qit'a birinchiligining 5 ta oltin, bitta kumush va 7 ta bronza, jami 13 ta medaliga sazovor bo'ldi.

Darhaqiqat, bugungi kunda qilichbozlik sport turi yurtimizda tobora rivojlanmoqda. Yuqori saviyali sportchilarimiz jahon arenalarida mamlakatimiz sport sharafini munosib himoya qilib, yuqori natijalarni qayd etmoqda. Xususan, o'tgan mavsumda terma jamoamiz a'zolari qilichbozlikning rapira, shpaga va sablya yo'nalishlari bo'yicha yakkalik bahslarida 10 ta oltin, 5 ta kumush va 13 ta bronza, jamoaviy bahslarda 12 ta oltin, 3 ta kumush hamda 5 ta bronza, jami 48 ta medalni qo'lga kiritib, "Parij - 2024" Olimpiadasi yo'lida qimmatli reyting ochkolari jamg'arishga muvaffaq bo'lgandi. Endilikda yosh qilichbozlarimiz aka va opalarining izidan borib, xalqaro maydonda yuqori natijalarga erishmoqda.

Bahrayn poytaxti Manama shahrida qilichbozlik bo'yicha o'smirlar va yoshlar o'rtasida Osiyo chempionati bo'lib o'tdi. 30 ga yaqin davlatning mahoratli yosh qilichbozlari ishtirokida o'tgan mazkur qit'a birinchiligida O'zbekiston terma jamoasi 5 ta oltin, bitta kumush va 7 ta bronza, jami 13 ta medalga sazovor bo'ldi. Terma jamoamizga dastlabki muvaffaqiyatni o'smirlar o'rtasidagi sablya yo'nalishidagi bahslarda qatnashgan Alpomish O'roqboyev keltirdi. U finalda janubiy koreyalik raqibidan ustun kelib, oltin

AKA-OPALAR IZIDAN MUNOSIB ODIM



medalni qo'lga kiritdi. Sablya qurolida o'smir qizlar toifasida kechgan bahsda Nargiza Jaksibayeva barcha raqiblarini mag'lub etib, oltin medalga sazovor bo'ldi. Shundan so'ng Sanam Nazarova, Muxlisaxon Rahmonova, Madinabonu Mansurova va Alina Halilovadan iborat shpagachi qizlarimiz jamoaviy dasturda va yakkalik bahslarida ishtirok etib, sovrindorlar safidan joy olishdi. Umuman o'smirlar terma jamoamiz qit'a birinchiligida 2 tadan oltin va bronza hamda bitta kumush medalni qo'lga kiritib, umumjamoahisobida to'rtinchi pog'onadan joy oldi.

Yoshlar o'rtasida o'tkazilgan bahslarda esa 3 ta oltin va 5 ta bronza medalni jamg'argan qilichbozlarimiz umumjamoahisobida Yaponiyadan so'ng ikkinchi o'rinni egalladi. Bu borada sablya qurolidagi yakkalik va jamoaviy bahslarda qatnashgan Musa Aymuratov, Sardor Abdulkarimbekov, Zuhridin Qodirov, sablyachi qizlarimiz Gulistan Perdibayeva, Fernanda Errera, Nargiza Jaksibayeva hamda Samira Shokirova yuqori mahorat namoyish etishdi.

Boks

RING JANGLARI AVJIDA

Butunjahon boks tashkiloti (WBO) va Butunjahon boks ittifoqi (WBC) yangilangan reytingini e'lon qildi. WBO reytingidan 6 nafar, WBC reytingidan esa 8 nafar bokschimiz o'rin oldi. Ruminiya va Rossiyada esa yoshlar hamda o'smirlar o'rtasida xalqaro turnirlar o'tkazildi. Har ikki turnirda bokschilarimiz muvaffaqiyatli qatnashib, umumjamoahisobida birinchi o'rinni egalladi.

Bugun Italiyaning Milan shahrida boks bo'yicha "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlariga yo'llanma beruvchi litsenzion musobaqa boshlanadi. Tarkibidan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham o'rin olgan O'zbekiston terma jamoasi bokschilari mazkur turnirga so'nggi tayyorgarlik mashg'ulotlarini Ispaniyada o'tkazdi, ya'ni 15 ta davlat sportchisi ishtirokidagi xalqaro o'quv-mashg'ulot yig'inida qatnashdi. Yig'inga litsenzion musobaqada ishtirok etishi kutilayotgan 8 nafar bokschimiz jalb etildi. Ularning faqat 4 nafari Milanda ringga ko'tarildi.

Butunjahon boks tashkiloti (WBO) va Butunjahon boks ittifoqi (WBC) fevral oyi uchun yangilangan reytingni e'lon qildi. WBO reytingidan yurtimizning 6 nafar charm qo'lqop ustasi o'rin oldi. Bolgariyaning Sofiya shahrida o'tkazilgan "Stranja" turnirida bronza medalni qo'lga kiritgan Hasanboy Do'smatov (-54 kg) o'z vazn toifasida bir pog'ona ko'tarilib, 6-o'rinni egalladi. O'ta yengil vazndagi Olimjon Nazarov esa yanvar oyidagi kabi reytingda 5-o'rinda qoldi. Murodjon Ahmadaliyev o'z vazn toifasida yettinchi, Shahram G'iyosov yarim o'rta vaznda uchinchi bo'ldi. MVSM vakili Bektemir Meliqo'ziyev super o'rta vaznda yettinchi pog'onada qayd etilgan bo'lsa, Bahodir Jalolov o'z vaznida 15-pog'onani egallab turibdi.



WBC reytingidan esa mamlakatimizning 8 nafar bokschisi o'rin oldi. Yarim yengil vazndagi bokschimiz Murodjon Ahmadaliyev avvalgi o'rimdan bir pog'ona ko'tarilib, 3-o'rinni egalladi. Bektemir Meliqo'ziyev ham o'tgan oyidagi pog'onasidan yuqorilab, 12-o'ringa joylashdi. Yengil vazn toifasidagi Olimjon Nazarov ham WBC reytingiga kiritildi, ya'ni 34-o'rinda qayd etildi. Hasanboy Do'smatov (5-o'rin) va Bahodir Jalolov (13-o'rin) esa o'tgan oy reytingidagi kabi o'z o'rinlarida qoldi. Isroil Madrimov sakkizinchi, Shahram G'iyosov o'n to'rtinchi va Jahongir Rasulov 32-o'rindan joy oldi.

O'smir va yosh bokschilarimiz xalqaro maydonda yuqori mahorat namoyish etmoqda. Xususan, o'tgan hafta Ruminiyada boks bo'yicha yoshlar va o'smirlar o'rtasida "Dracula - 2024 open" xalqaro turniri o'tkazildi. Moldova, Polsha, Qozog'iston, Gretsiya, Ruminiya, Italiya kabi davlatlarning mahoratli bokschilari qatnashgan musobaqada o'smirlar terma jamoamiz 5 ta oltin, bitta kumush, yoshlar terma jamoamiz 4 ta oltin, 6 ta kumush va 2 ta bronza medalni qo'lga kiritdi. Yurtimiz vakillari umumiy hisobda 9 ta oltin, 7 ta kumush va 2 ta bronza medalga egalik qilgan holda, umumjamoahisobida 1-o'rinni egalladi.

Rossiyada o'tkazilgan xalqaro turnirda yosh bokschilarimiz muvaffaqiyatli ishtirok etdi. O'zbekiston terma jamoasi 7 ta oltin, 3 ta kumush va bitta bronza, jami 11 ta medalga sazovor bo'lib, umumjamoahisobida 1-o'rinni egalladi.

SHOHSUPA

(xabarlar)



SUV SPORTI

Qatarda o'tkazilgan jahon chempionatida dunyoning 2 ming 500 nafardan ziyod sportchisi qatnashib, sovrinli o'rinlar hamda "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari yo'llanmalari uchun kurash olib borishdi. Erkin usulda 800 metrga suzish dasturida qatnashgan hamyurtimiz Ilya Sibirsev marrani 7:53:87 daqiqada bosib o'tib, milliy rekordimizni yangiladi. 400 metrga kechgan bahslarda ham Ilya 3:50:9 vaqt bilan O'zbekistonning yangi rekordini o'rnatdi. Biroq ushbu natijalar unga jahon chempionatining final yo'llanmasiga chiqish imkonini bermadi. Vakillarimizdan faqat suvga sakrash dasturida yurtimiz sport sharafini himoya qilgan Igor Myalin yakunda kuchlilar qatoridan joy olib, "Parij - 2024" Olimpiadasi yo'llanmasiga ega bo'ldi.

YENGIL ATLETIKA



Eronda yengil atletika bo'yicha yopiq inshootlardagi Osiyo chempionati bo'lib o'tdi.

Unda ishtirok etgan

O'zbekiston terma jamoasi 2 tadan kumush va bronza, jami 4 ta medalga sazovor bo'ldi. Ayollar o'rtasidagi yadro uloqtirish bahsida qatnashgan atletimiz Malika Nasriddinova va erkaklar o'rtasidagi ko'pkurash dasturida ishtirok etgan Zahriddin Shokirov yakunda shohsupaning 2-pog'onasiga ko'tarildi. Uch hatlab sakrash sektorida qatnashgan hamyurtimiz Ivan Denisov, shuningdek 4x400 metrga estafeta yakunida Lidiya Podsepkina, Laylo Allaberganova, Nurxon Ochilova hamda O'g'iloy Norboyevadan iborat jamoamiz bronza medal sohibiga aylandi.

KAMONDAN OTISH



Iroqda qit'aning kuchli merganlari ishtirokida kamondan otish bo'yicha Osiyo kubogi bahslari o'tkazildi. Mazkur musobaqada qatnashgan yurtimiz merganlari bitta kumush va 4 ta bronza

medalga ega bo'ldi. Ayollar terma jamoamiz jamoaviy dasturda finalgacha muvaffaqiyatli yetib borib, kumush medalga egalik qildi. Yigitlarimiz jamoaviy, Amirxon Sodiqov va Nilufar Hamroyeva yakkalik, Amirxon Sodiqov hamda Ziyodaxon Abdusattorova mikst dasturida bronza medallarga ega chiqdi.

VELOSPORT



Velosportning trek yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan Qozog'iston qishki ochiq chempionatida O'zbekiston yoshlar terma jamoasining 21 nafar vakili ishtirok etdi va xalqaro turnirni 2 ta oltin, 3 ta kumush va 4 ta bronza, jami 9 ta medalni qo'lga kiritish bilan yakunladi.

KONKUR



O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Bekzod Qurbonov BAAda tashkil etilgan xalqaro musobaqada ikkita medalga sazovor bo'ldi. Hamyurtimiz turnirning 135 sm balandlikdagi to'siqlardan sakrash dasturida "Santos Hippica" laqabli tulporda kumush, Gran-pri darajasida e'tirof etiladigan 145 sm.li yo'nalishda esa "Matts VG" tulpori bilan bronza medaliga ega chiqdi.

Mantiqiy mantiqsizlik



Rivoyatda aytilishicha, qadimda bir podshoh bir insonni maxsus xizmatga yollaydi va unga: “Har kuni huzurimga kelib, o’lim muqarrarligini eslatib turasan. Xizmatimga evaziga har kuni bir tangadan haq to’layman”, deydi. Uzoq yillar davom etgan ushbu kelishuv podshoh sochlariga oq tushishi bilan barham topadi. Chunki o’lim borligini eslatishga endi hojat qolmagan edi. Podshohning oq sochlari unga har lahza bu haqiqatni eslatib turishi kifoya qilar edi...

Azal-azaldan qon-qonimizga singib ketgan ayrim illatlar borki, ularni “hazm” qilish uchun juda katta jasorat kerakdek. Ayniqsa, duch kelinayotgan kichkina xato va kamchiliklar bilan birgalikda sun’iy to’siqlar mutasaddilarga yetkaziladigan bo’lsa, muammoning yechimi qolib, eslatganning shaxsiyati bilan shug’ullanish chorolari ko’rila boshlaydi. Xuddiki, xabar berilgani uchun o’sha muammo yuzaga kelgandek...

GAP EGASINI TOPADI

Armiyani xalq bilan yaqinlashtirish, aholi, ayniqsa yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida yurtimiz bo’ylab

Xorij tajribasi

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofazalash

Butun dunyoda tabiiy va texnogen vaziyat keskinlashib borishi oqibatida bugungi kunda aholi va hududlarni muhofaza qilish sohasida kadrlar tayyorlashning turli xil yo’nalishlari paydo bo’ldi.



Ba’zi mamlakatlarda, xususan Shveysariya, Shvetsiya va Isroilda aholi hamda hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimiga alohida e’tibor berilgan holda boshqa davlatlarda ushbu soha deklaratsiyalar darajasi bilan o’z intihosini topgan. Bunday vaziyat dunyoning barcha davlatlarida aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida kadrlar tayyorlash sohasiga ko’p e’tibor berilmaydi va deyarli bir xil

harbiy qismlarda “Uch avlod uchrashuvi”, “Harbiy qismda bir kun” kabi ko’plab tadbirlar o’tkazilmoqda. Tabiiyki, bularning hech biri ommaviy axborot vositalari ishtirokisiz o’tmaydi. Xuddi shunday uchrashuvlarning biriga borish uchun xizmat mashinasida yo’lga tushdik. Manzilgacha bir soatlik yo’l. Yetib borgunimizcha tadbir mas’ullaridan ikki marta qo’ng’iroq ham bo’ldi. Va nihoyat, harbiy qismning kirish darvozasi qarshisida to’xtadik. Kirish qismida turgan navbatchi harbiy xizmatchi nima maqsadda kelganimizni so’radi. Ratsiya orqali kiritib yuborish buyrug’ini olgandan keyin xizmat mashinasini tashqarida qoldirib, o’zimiz tekshiruvdan o’tishimizni talab qildi. Qonun barcha uchun teng, gap-so’z yo’q. O’zimiz bilan olib kelgan foto va videokameralarini bittalab tekshiruvdan o’tkazgach, telefon apparatlarini kirish joyida qoldirishimizni talab qildi. Telefon xizmat yuzasidan kerak bo’lishini tushuntirishga harakat qildik, bo’lmadi. Na chora, vaziyat shu darajaga yetib kelgan ekan, bajarmaslikdan o’zga iloj bormi?

Tadbir bo’layotgan joyga kirib borganimizda yoshi ulug’ faxriylardan biri yoshlarga boshdan kechirgan voqealarni so’zlab berayotgan ekan. Imkon qadar xalal bermaslikka harakat qilgan holda, jarayonni boshladik. Uchrashuv yarimlay deb qolganida old qatorda o’tirgan otaxon yon cho’ntagidan telefonini chiqarib, “Uka, bizni esdalikka suratga olib qo’ying”, deya telefonni menga uzatdi. Bir nechta surat tushirganimgan so’ng orqa qatorda o’tirgan 40-45 yoshlar chamasi bir ayol ham telefon uzatdi... Tadbir so’ngida harbiy texnikalar, qurol-aslahalar ko’rgazmasi boshlandi. So’ng harbiy qismda tashkil etilgan kichikroq muzeyga ham sayohat bo’ldi. Meni ajablantirgan holat shunda ediki, harbiy qismga tashrif buyurganlarning deyarli barchasida telefon bor edi. Ular bir-birlarini ochiqchasiga esdalik uchun harbiy texnika, qurol-aslahalar oldida ham suratga tushirishayotgan edi. Gazeta va rasmiy veb saytda yoritilishi uchun suratga olayotganim bois qo’lida telefoni bilan tushib qolayotgan yoshlarga biroz tanbeh ham berdim. Sal

chetroqda televideniyaning oq rangli “Damas” mashinasi, uning yonida qo’lida mikrofon ushlab, telefonda nimalarnidir berilib gaplashib turgan muxbir qizga keyin ko’zim tushdi... Tadbirga kelgan yoshlarni harbiy qism ichkarisida turgan avtobusga chiqarishdi va bizning telefon bilan kirishimiz qoidaga zid ekanini ro’kach qilib, 15 daqiqa asabbuzarlik qilgan navbatchi darvozani katta qilib ochdi. Avtobus chiqib ketishidan oldin esa jismoniy shaxsga tegishli bo’lgan avtomashina harbiy qism ichkarisiga nomiga to’xtab ham qo’ymasdan kirib keldi. U harbiy qism ichki hududida joylashgan do’konning egasiga tegishli bo’lib, yuk olib kelayotgan ekan. Biz esa telefonlarimizni olib, tashqarida turgan xizmat mashinamizga yo’ldik... Gapimiz avvalida keltirgan rivoyatimizga ko’ra, pul evaziga yollangan insondan ayro o’laroq, kamchilik va xatolarni tekinga aytayotganimizga xursand bo’lib, muammolarni to’g’rilashga harakat boshlansa, xursand bo’lar edik. Zero inson bir-biriga ko’zgu kabitir.

Sherzod SHARIPOV

tarzda kechmoqda, degan xulosa kelib chiqishiga sabab bo’ladi.

Shunga qaramay, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasi uchun kadrlarni tayyorlashda bir necha yo’nalishlarni farqlash mumkin.

Ushbu farqlar nimalardan iborat?

1. Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning butun maqsad va mohiyati ko’pchilik mamlakatlar uchun “sovuq urush” yakuniga yetgach, o’z kuchini yo’qotdi. Shu bilan birga kadrlarga bo’lgan ehtiyoj yo’qolmadi.

“Sovuq urush” davri tugaganligi munosabati bilan aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasiga e’tibor deyarli barcha mamlakatlarda susaydi. Bunga ushbu sohaga ajratilgan mablag’larning kamayishi, dasturlarning muzlatib qo’yilishlarini misol keltirish mumkin.

Bunday jarayon Isroildan boshqa deyarli barcha mamlakatlarda (AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya va boshqa) kuzatilmoqda. Bunda Isroil yuzaga kelgan harbiy-siyosiy vaziyat tufayligina shunday yo’l tutishga majbur bo’lmoqda.

Shu bilan birga, so’nggi yillarda rivojlangan mamlakatlardan hech biri aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimidan voz kechgan emas. Bundan tashqari, ushbu mamlakatlarda sohaga kadrlar tayyorlash tizimining yangi usullarini ishlab chiqish borasida ishlar olib borilmoqda. Bunda tabiiy ofatlar, halokatlar va avariya oqibatlarini bartaraf etish bo’yicha mutaxassislarini tayyorlashga alohida e’tibor berilmoqda.

2. Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimi davlatning safarbarlik tayyorgarligi bilan chambarchas bog’liqligi oydinlashib bormoqda.

1981-yilda AQShda Prezidentning milliy xavfsizlik masalalari bo’yicha yordamchisi rahbarlik qiladigan safarbarlik tayyorgarligi kengashi tuzilgan edi.

Ushbu kengash kotibiyat va ishchi guruhlardan tashkil topgan bo’lib, ulardan biriga fuqaro muhofazasi sohasi yuklatilgan. Ushbu guruhga davlat miqyosida boshqaruv organlarining aholi va hududlarni muhofaza qilish sohasidagi barcha tadbirlarini muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilgan.

Safarbarlik tayyorgarligiga oid yana bir jihatni qayd etib o’tish kerakki, bunda

tinchlik davrida barcha tadbirlarni amalga oshirish imkoni bo’lmaligi sababli tinchlik davridan alohida davrga o’tish uchun kadrlarni tayyorlash borasida ko’plab ishlar amalga oshirilgan. Bundan ko’rinib turibdiki, alohida davrda aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilish bo’yicha kadrlar tayyorlashga ham alohida e’tibor berilgan. Ba’zi mamlakatlar aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarining asosiy qismini alohida davrda amalga oshirishni ko’zlaganlar. Bunda safarbarlik rejalarini ishlab chiqilib, ularda moddiy ta’minot va zaxiralarga e’tibor beriladi.

Angliyada fuqaro muhofazasiga oid qonun endigina (avvalgi 1948-yilda ishlab chiqilgan) takomillashtirilmoqda. Ushbu qonun halokatlar va terroristik harakatlar paytida davlat va nodavlat organlarining huquq va majburiyatlarini belgilab beradi. Qonun asosida 14 ta hududiy FM markazlari tuziladi va ularga favqulodda vaziyatlar paytida harakatlanish bo’yicha rejalmi ishlab chiqish va amalga oshirish, politsiya, maxsus xizmat, harbiylar va boshqalar bilan aloqa o’rnatish vazifalari yuklatiladi. Qonun politsiya, Mudofaa va Sog’liqni saqlash vazirliklari bilan birgalikda ba’zi hududlarni yopiq deb e’lon qilish, aholini FV hududidan majburiy evakuatsiya qilish kabi ishlarni tashkil qilish imkonini beradi. FM markazlari faoliyatini tashkil etish sohasida kadrlar tizimi shakllantiriladi.

3. So’nggi yillarda chet ellik mutaxassislar FM tizimi harakatchan, uning kuch va vositalari qisqa muddat ichida tez boshqariladigan bo’lishi kerak, degan xulosaga kelishmoqda.

Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarining FM tizimida o’xshashliklar juda ko’p bo’lib, ular harbiy tuzilishdan chekinib, ijtimoiy yo’nalishga ko’proq e’tibor berishmoqda.

4. Ushbu davlatlarda FM tizimi davlat tizimida muhim ahamiyat kasb etib, ular o’tgan asrning 50-70-yillarida paydo bo’lgan va tegishli mansabdor shaxs va kadrlarning xizmat vazifalari aniq belgilab qo’yilgan.

Chet mamlakatlarda FM tizimi bir-biriga o’xshash bo’lib, ko’pchilik mamlakatlarda (Fransiya, Germaniya, Angliya, Isroil, Meksika, Argentina, Indoneziya) bu tizimga rahbarlik qilish Ichki ishlar vazirligiga, boshqa mamlakatlarda esa Adliya va politsiya

vazirliklariga (Shveysariya, Norvegiya, Ispaniya va Islandiya) yuklatilgan.

Barcha rivojlangan chet mamlakatlarda kadrlar tayyorlash sohasiga alohida e’tibor berib kelinadi. Buning uchun Germaniyada Fuqaro mudofaasi akademiyasi, Fransiyada Fuqaro mudofaasi instituti, Buyuk Britaniyada Fuqaro mudofaasi kolleji, Belgiya, Daniya, Niderlandiya va Gretsiyada milliy maktab va markazlar tashkil etilgan. AQShda yong’inga qarshi akademiya bilan bir qatorda favqulodda vaziyatlarda boshqaruv instituti FEMA (Federal Emergency Management Agency) tashkil qilingan.

Germaniya Fuqaro muhofazasi akademiyasidan tashqari Rur shahridagi Boksum universitetida “Gumanitar yordam – Master in Humanitarian Assistance” magistrlik dasturi ham mavjud bo’lib, bu yerda har yili Favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga mo’ljallangan 20 nafar mutaxassis tayyorlanadi. Universitetga har qanday yo’nalish bo’yicha bakalavr darajasiga ega bo’lgan mutaxassislar qabul qilinadi. Magistratura 3 semestr davom etadi. Magistraturani tugatgan mutaxassislar Qizil Yarim oy jamiyatida, BMTning har xil tuzilmalarida, gumanitar yordam ko’rsatuvchi va boshqa tashkilotlarda ham faoliyat yuritishlari mumkin.

Fransiya Fuqaro mudofaasi institutidan tashqari rahbar kadrlarni tayyorlash uchun Parij yaqinidagi Nenvillya-Roshda milliy o’quv markazi ham faoliyat yuritadi. Bundan tashqari 10 ta departamentlararo markazlar ham mavjud.

Belarus Respublikasida aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida Qayta tayyorlash va malaka oshirish instituti, Gomel muhandislik va Qo’mondonlik-muhandislik institutlari negizida FVV Fuqaro muhofazasi akademiyasi tashkil qilingan.

Yuqorida keltirilgan barcha mamlakatlarda kadrlar tayyorlashda o’quv mashqlarining o’rni yuqori baholashadi. Ko’pchilik chet mamlakatlarda aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida faoliyat yurituvchi kadrlar uchun malaka talablari ishlab chiqilgan.

A. QUVANDIQOV,
Fuqaro muhofazasi instituti dotsenti

YURT-ELIN SEVGAN EL BO'LUR ASKAR

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Qurolli Kuchlar tizimi harbiy xizmatchilari va harbiy ta'lim muassasalari kursantlari uchun "Mard askarga sovg'a" turkumida ixcham kitoblarni nashr etish yo'lga qo'yilgan.

Yaqinda shu turkumga oid 7 ta kitob nashrdan chiqdi.

Ushbu to'plamlarda iste'dodli adiblarimizning ona Vatanga sadoqat, fidoyilik, mardlik va jasorat kabi fazilatlar tarannum etilgan eng sara hikoyalari, she'r va dostonlaridan parchalar,

shu mavzudagi mashhur qo'shiqlarning matnlari jamlangan.

Mazkur to'plamdan joy olgan badiiy asar namunalari gazetamiz sahifalarida ham muntazam ravishda chop etib borishni joiz topdik.



O'GUT

Og'ir yigit, sening go'zal, nurli ko'zingda
Bu millatning saodatin, baxtin o'qudim.
O'ylashingda, turishingda hamda o'zuingda
Bu yurt uchun qutulishning borlig'in ko'rdim.

Turma – yugur, tinma – tirish, bukilma – yuksal,
Hurkma – kirish, qo'rqma – yopish, charchama – qo'zg'al.

Yel yo'lini to'sib turgan eski bulutlarni
Yondirib qo'y, yirtib tashla, barchasin yo'q et.
Qilolmasang shu ishlarni,
Sening uchun xo'rlikdir bu...
Yiqil, yo'qol, ket!

Abdurauf FITRAT



TILAKLARIMIZ TILAGI

Zulmlar nashtari yurakni tilmasin,
Dor nima, o'q nima... hech kishi bilmasin,
Qon to'kish kishining boshiga kelmasin!..
Bu bizga kuch bergan tilaklar tilagi.

Erkka yo'l bermagan to'g'onlar buzilsin,
Nurga yov pardaning iplari uzilsin,
Qisqasi, dunyoda yosh tuzum tuzilsin!..
Bu bizga yo'l ochgan tilaklar tilagi.

Alamlar dashtida bir jahon tolmasin,
Chamanlar gulini bir gala olmasin,
O'ngda ham, so'lda ham "kultepa" qolmasin!..
Bu bizni tebratgan tilaklar tilagi...

BOTU



ASKAR

Bu muqaddas so'z ustida men ko'p
Fikr etib, istadim baho qo'ymoq.
Bu baho zavqig'a qonib to'ymoq,
Dedi ko'nglim: – Seni, oni oldin o'p!..

Borlig'im to'xtatolmayin o'zini
Xonining buyrug'in ado etdi.
O'ylarim to'planib, uning so'zini
Tekshirib oxiri shunga yetdi.

Dedi: – Askar, o', muhtaram, go'zal ot,
Tinch hayot o'tkizish payambaridir.
Quvonch kelturur g'am o'rnig'a bot,
Chunki ul shodliq – kulgi rahbaridir.

Askar, askar, bu yurt sening-la yoshar,
El sening hurmatingni bilgusidir.
El qoni sensiz yurt ichinda toshar,
Yov kelib, barcha elni tilgusidir.

Yurt-elin sevgan el bo'lur askar,
Qochmagay emgag-u mashaqqatidan.
Elni saqlash uchun tuzar lashkar,
Etmas umid hech o'zga shafqatidan.

ELBEK



O'LKA

Men dunyoga kelgan kundanoq
Vatanim, deb seni, uyg'ondim.
Odam baxti birgina senda
Bo'luriga mukammal qondim.

Qulog'imga noming kirganda,
Qumliq kabi tashna boqurman.
Sening jannat vodiylaringdan
Nahlarday to'lib oqurman.

Bilsinlarkim, yo'ldoshim bo'lmas,
Ko'zda yoshi bilan kulganlar.
Tillari bor, o'zlari hayot,
Lekin yurak-bag'ri o'lganlar.

Har aytganing buyuk jangnoma,
Qayga desang, qaytmay keturman,
Ko'zlarimni yummasman aslo –
Daryo kabi uyg'oq o'turman.

Hamid OLIMJON



YURAK

Yurak, sensan mening sozim,
Tilimni nayga jo'r etding.
Ko'zimga oyni berkitding,
Yurak, sensan ishqibozim.

Senga tor keldi bu ko'krak,
Sevinching toshdi qirg'oqdan..
Tilim charchar, ajab, gohi
Seni tarjima qilmoqdan.

Sen, ey sen – o'ynoqi dilbar,
Zafardan izla yoringni.
To'lib qayna, toshib o'yna,
Tirikman, kuyla boringni.

Itoat et!
Agar sendan
Vatan rozi emas bo'lsa,
Yoril, chaqmoqqa aylan sen,
Yoril! Mayli, tamom o'lsam!..

Usmon NOSIR

Askar maktubi

Bayramona sog'inch xati

Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti kursantlari va muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan askarlar 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan onalariga bayram tabrigini yozdilar.

Inson ona Vatanini dastlab mehribon onasi orqali his qiladi, taniydi. Ona tuproq, ona yurt kabi beqiyos ta'riflar onajonlar allasi, erkalashlari orqali ong-u shuuriga singadi. Kursantlar va oddiy askarlar qo'llariga oq qog'ozni tutganicha mehr va sog'inch ila, qalbda g'urur va iftixor bilan o'z onalariga maktub yozdilar.



Onaga maktub...

Oq qog'oz uzra minnatdorlik, faxr-iftixor va sog'inch Vatan oldida yigitlik burchini o'tayotgan yigitlar dilidan qog'ozga to'kildi.

Tadbirida institut boshlig'ining o'rinbosari podpolkovnik Fayzullo Shermatov va yetakchi mutaxassis Ozoda Hakimova askarning onasiga yozgan maktubi, ayniqsa bayramoldi tabrigining onalar nazdidagi qadri, qiymati haqida gapirib o'tdi.

Mayor Sherqo'zi XAKIMOV,
Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

"Ishonchi yuksak yigitlar safidaman"

Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Zayniddin Ortiqjonov Andijon viloyatining Marhamat tumanidan xizmatga chaqirilgan. Harbiy xizmatni namunali o'tab, kelajak yo'lini harbiy soha bilan bog'lashni istagan g'ayratli yigit ota-onasi Tojiddin aka va Zulfiya opaga askarlik salomini yo'llaydi:

– Assalomu


alaykum, mehribonlarim – dadajon, ayajon! Bugun Vatan xizmatida ishonchingizni oqlab turganimdan xursandman. Armiya maktabida erishgan har bir yutug'imda sizlarning katta hissangiz bor. Dadajon, esingizdami, doim sport bilan shug'ullan, der edingiz. Ayam esa yaxshi o'qi, deb darslaringa e'tibor qaratar edi. Sizlarning mana shu jonkuyarligingiz sabab jismonan sog'lom, bilimli bo'lib ulg'aydim. Harbiy xizmatga saralash sinovlarida askarlikka munosib topildim. Mana, muddatli harbiy xizmat ortda qolib, hademay, bag'ringizga qaytaman. Biroq oldingizda ko'p qolmasam kerak. Chunki Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtiga hujjat topshirmoqchiman. Niyatim, ofitser bo'lib, Vatanim tinchligini himoya qilish.

Ishonaman, sizlar bu orzo'yimni xursand bo'lib qabul qilasiz. Bir so'z bilan aytganda, muddatli harbiy xizmat meni o'ziga bo'lgan ishonchi yuksak yigitlar safida bo'lishimga zamin yaratdi. Oldingizga qaytganimda bunga ishonch hosil qilasiz.

Sizlarni sog'inib, o'g'lingiz oddiy askar

Zayniddin ORTIQJONOV

"Harbiy shifokor bo'lmoqchiman"



Bir yil avval milliy armiyamiz saflarida xizmat boshlagan muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askarlar bugun qadrlari tik, dillarida faxr bilan yaqinlari bag'riga qaytishga shay turishibdi. Ularning ko'ksida qanday minnatdorlik kalomi bo'lsa, bu avvalo, ularni sog'lom va o'ktam ulg'aytirgan ota-onalari va armiya maktabida Vatan himoyachisi bo'lib har tomonlama shakllanishida ustozlik qilgan komandirlariga

atlangan.

Oltinko'l tumanining Maslahat qishlog'ida voyaga yetgan oddiy askar Mirodil Tursunboyev ham ota-onasi Mashrabjon aka va Gulzodaxon opaga askar salomini yo'llash ishtiyoqida.

– Assalomu alaykum, dadajon, onajon, salomatligingiz yaxshimi? Ukam, singlim, qarindosh-urug'lar sog'-salomatmi? Mana, sizlar duo qilganingizdek, Vatan oldidagi yigitlik burchimni namunali posbonlar safida o'tab, oldingizga yorug' yuz bilan qaytishga shay turibman. Balki dadamning tug'ilgan kunida oilaviy bayram dasturxonida birga bo'larmiz. Bugun armiya maktabidagi ustoz komandirlarim sabab tinchlikka kamarbasta, g'ayratli, maqsadi teran safdoshlarim safida qad rostlab turganimdan xursandman.

Maqsadim bag'ringizga qaytib, Andijon tibbiyot institutiga kirib, shifokor bo'lishni, kelajakda Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasida tahsil olib, harbiy shifokorlar safida Vatan xizmatida bo'lishdir.

Sizlarga askar salomini yo'llovchi o'g'lingiz

Mirodil TURSUNBOYEV

Qadriyat

Vatanparvarlar uchrashuvi

Ertamiz egalarini Vatanga sadoqat va qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashda katta avlod vakillari alohida o'rin tutadi. Shu munosabat bilan Qurolli Kuchlar va Harbiy prokuratura organlari faxriylari jalb etilgan holda joylarda uch avlod uchrashuvlari tashkil etib kelinmoqda.

Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumani Geofizika mahallasi yoshlari, umumta'lim maktablari va "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi o'quvchilari, faxriylar va nuroniylar ishtirokida Toshkent harbiy prokuraturasi tomonidan o'tkazilgan tadbir ham shular jumlasidan.

Unda so'z olganlar vatanparvarlik hamda xalqimizning boy tarixiy, ma'naviy, madaniy va ilmiy merosidan faxrlanish tuyg'ulari, qadriyatlariga ehtirom, sog'lom va mustaqil fikr, faol fuqarolik pozitsiyasi, el-yurt taqdiriga daxldorlik va odamlarning dard-u tashvishlarini aritish yo'lida yashash, harbiy xizmat nufuzi mavzularida mulohaza yuritishdi.

Shuningdek, muloqotda yoshlarga respublikamizdagi oliy harbiy ta'lim muassasalari va Huquqni muhofaza qilish akademiyasiga o'qishga kirish tartibi haqida ma'lumot berildi, ularga bukletlar va Internet tarmoqlaridagi havolalar yetkazildi.

Bunday tadbirlar Buxoro harbiy prokuraturasi tomonidan shahar kasb-hunar maktabi hamkorligida monomarkazda, shuningdek Nukus harbiy prokuraturasi hamda Shimoli-g'arbiy harbiy okrug va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi tuzilmalari hamkorligida IIV "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyida ham amalga oshirildi.

Bundan tashqari, sport va ijodiy yo'nalishlar bo'yicha turli tanlovlarni uyushtirilib, g'oliblar munosib taqdirlandi.

Adliya podpolkovnigi Botir SOBIROV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturaning yordamchisi

Ehtirom

Faxriylar doimo e'tibor va e'zozda

Mamlakatimizda keksalarga, faxriylarga yuksak e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, bu borada Markaziy harbiy okrugda ham keng ko'lamdagi xayrli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Navoiy viloyati faxriylar va jamoatchilik kengashi vakillari hamda bir guruh harbiy xizmatchilar uzoq yillar davomida milliy armiyamiz saflarini butlashda munosib hissa qo'shgan iste'fodagi podpolkovnik Ne'mat Boboyevning xonadonida bo'lib, uning holidan xabar olishdi.

Asli nurotalik bo'lgan Ne'mat Boboyev 1974–1978-yillar davomida Samarqand oliy harbiy avtomobil-muhandislik bilim yurtida tahsil olib, 1987-yilga qadar turli lavozimlarda xizmat qildi. 1987-yildan turli joylarda mudofaa ishlari bo'limi va boshqarmalarida rahbarlik qildi.

Mehmonlar bilan o'tgan suhbat jarayonida qahramonimiz davlatimiz mustaqillikka erishgach o'z Qurolli Kuchlariga ega bo'lgani, uni mard va jasur og'lonlar bilan butlash vazifasi juda og'ir kechgan vaziyatlarni so'zlab berdi.

– Ana shunday qiyinchiliklar evaziga bugun milliy armiyamizning salohiyati yuksaldi, harbiy xizmatchilarning erishayotgan yutuqlari bizning ham yutuqlarimiz deb o'ylayman, – deydi iste'fodagi podpolkovnik Ne'mat Boboyev.

Bir so'z bilan aytganda, insonni mehnat ulug'laydi. Qahramonimizga ushbu ta'riflarni bemalol berishimiz mumkin. Sadoqatli yor, mehribon ota, intiluvchan xodim, sevimli ustoz. Mana shunday yaxshi xislatlar sohiblari haqiqiy qahramonlar aslida.

Umrining 31 yilini harbiylikka bag'ishlagan Ne'mat Boboyevning ibratli hayot yo'li bugungi yosh avlod uchun haqiqiy ibrat maktabidir.

Markaziy harbiy okrug matbuot xizmati



Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun

YAXSHILIK ORTIDAN KELADI



Kunlardan bir kun Xorazm yurtining podshohi mamlakatda eng chiroyli so'z aytish bahsini o'tkazmoqchi bo'libdi. O'sha kundan boshlab, chiroyli so'z, go'zal so'z degan gaplar odamlarning og'zidan tushmay qolibdi. Ana shu gaplar bahsga aylanib, katta bir kengash o'tkazilibdi. Kengash butun mamlakatga e'lon qilingan ekan. Bir dehqon yigit, men ham qatnashay, sovringa ega bo'lsam, bir qo'shho'kiz olardim, deya niyat qilibdi. Shohona darvoza oldiga kelib, qo'lidagi o'roq, yelkasidagi ketmonni yerga qo'yib, "Bismilloh", deb ichkari kirib, safga qo'shilibdi. Bahs avjiga chiqqan ekan.

O'z taxtida bahslarni kuzatib, tantana bilan o'tirgan shohga qo'lini ko'ksiga qo'yib, ta'zim qilib, salom yo'llabdi. Bahsni saroy a'yonlari baholab o'tirishar ekan. Shunda bahsda qatnashayotgan bir kishi o'rnidan turib:

– Yomonlik qilma! Yomonlik ketidan yomonlik keladi, – degan gaplarni aytibdi. Qilni qirq yoradigan hakamlar qarsak chalib, olqishlashibdi. Shoh ham qarsak chalibdi.

Navbat dehqon yigitga kelibdi.

– Yaxshilik qil! Yaxshilik ketidan yaxshilik keladi, – deb qo'lini ko'ksiga qo'yibdi. Atrofdagilar qarsak chalishibdi. Shoh esa o'rnidan turib, qarsak chalibdi.

– Shahanshohim, – deb so'rabdi hakamlardan biri, – birinchi ishtirokchi o'z so'zini aytganida yengilgina qarsak chaldingiz, ikkinchi qatnashchi so'zini aytganida esa o'rningizdan turib ketdingiz. Sabab ne? Buni biz – hakamlarga ayting, – debdi.

– Aslida ikkovlari ham foydali so'zni aytishdi, lekin birinchisi „yomonlik“ deyishi bilan negadir qalbim muzlab ketgandek bo'ldi. Ikkinchisi yaxshilik degan so'zni aytishi bilan qalbimdagi muz erib ketgandek bo'ldi. Shuning uchun o'rnimdan turib, qarsak chaldim. To'g'ri so'zni, chiroyli so'zni yoqimli qilib aytgani uchun birinchi sovrin shu dehqon yigitga berilsin, – deb farmon beribdi.

Xudoyberdi TO'XTABOYEV

BAYROQ

Bayroqqa uzatsam qo'limni,
Chin g'urur egallar dilimni.
Millat tug'i – iftixori u,
Mard erlarning or timsoli u.

Bunday yalov ayting qayda bor!?
Yer-u osmon, tinchlikka timsol.
Hilpirashi ezgulik bongi,
Quvnoq otsin, Ona yer tongi.

Men ham o'sib-ulg'aysam, albat,
Jahon uzra tutgum sarbaland.
Dunyo bo'ylab hilpiragay u,
Vatanimga shon bo'lib mangu!

Zulfiya YUNUSOVA

BUYUK IXTIROLAR

VELOSIPED QANDAY PAYDO BO'LGAN?

Bolajonlar, velosipedning qanday paydo bo'lganini bilishni xohlaysizmi? Unda bu ma'lumot sizlar uchun qiziq bo'ladi!



Kundalik turmushda eng arzon va qulay transport vositasi – bu velosiped hisoblanadi.

1418-yilda eng birinchi velosipedga o'xshash 4 ballonli transport vositasi italiyalik injener Jovanni Fontanna tomonidan ixtiro qilingan. Ammo ushbu ixtiro mashhur bo'lmagan. Faqat 400 yil o'tibgina, shunga o'xshash moslama dunyoni zabt etgan. 1813-yilda nemis olimi Karl fon Drezis otlarning yetishmovchiligi tufayli velosiped yaratish ustida bosh qotirgan.



Dunyodagi birinchi pedalli velosiped 1853-yilda fransuz olimi Per Michaud tomonidan ixtiro qilingan. U pedalli velosiped old g'ildiragiga motor mexanizmini birlashtirdi, amortizatorli o'rindiqdan foydalanish taklifini kiritdi hamda tormoz tizimini o'rnatdi. O'sha paytda Michaudning ixtirosi "suyak silkituvchi" deb nomlangan. Chunki uni nazorat qilish uchun mahorat va ephillik talab qilinardi.

Oradan o'n yil o'tib, birinchi zanjirli va g'ildirakli velosipedlar paydo bo'ldi. Shundan so'ng Fransiyada ikki g'ildirakli transport vositasi ommaviy ishlab chiqarila boshladi.

U hozirgi kunda ham urfdan qolmagan, insonlarning yashash tarzini osonlashtiruvchi va katta-yu kichik uchun sevimli bo'lgan transport vositasidir.



Место встречи — Музей «Славы»



В нашей стране проводятся сотни мероприятий и встреч, направленные на воспитание в нас, особенно молодежи, главного чувства человека, гражданина, невзирая на возраст: непоколебимого чувства патриотизма, преданности Родине и народу. Это было лейтмотивом и мероприятия в Государственном музее «Шон-шараф» (Музей «Славы») расположенном на уникальной исторической территории мемориального комплекса «Галаба боги» («Парк Победы») при Министерстве обороны Республики Узбекистан.



В дружеской, теплой обстановке прошла незабываемая встреча, названная предельно лаконично «Эхо блокады», проходившая в режиме «Телемоста», в которой приняли участие представители Кыргызской Республики, городов Киров и Санкт-Петербург, который издревле называют северной столицей России, в освобождении которого принимали участие стойкие, мужественные воины Узбекистана, оставив о себе неизгладимую память на века.

Перед диалогом из Ташкента прозвучала песня «Сияй, Ташкент – звезда Востока, звезда надежды, мира и тепла!», слова из песни – шлягера 70-х годов. Оригинал текста песни написан народным поэтом Узбекистана Рамзом Бабаджаном, русский перевод народного поэта России Льва Ошанина, автор музыки народный артист, композитор России Давид Тухманов.

– Много было сказано, показаны на экранах телепередачи о молодежных инициативах, направленных на увековечивание памяти о Победе братских народов в Великой Отечественной войне 1941–1945 гг., о проблеме сохранения исторической памяти и пути её решения. Прошел своеобразный диалог памяти и низкий поклон всем, кто помнит и передает, как эстафету, память о победе города, который знают во всем мире, тем более мы в Узбекистане, – отметил

полковник Шухрат Юсупов, начальник мемориального комплекса.

– Сотни километров, разделяющие наши города, объединили в эти часы нас, тех, кто помнит по воспоминаниям дедов, отцов о суровых днях сороковых годов прошлого столетия, о вашем городе мужества и стойкости, – дополнил полковник Даврон Давлетбоев, заместитель начальника комплекса. – Слова признательности всем, кто ушел и не вернулся, кто вернулся и дожил до сегодняшних дней, все они в нашей памяти навечно.

В зале слышались бесценные аудиозаписи, кинофрагменты, которым не один десяток лет, предоставленные архивом музея, начальник которого полковник Мухтаржон Шакиров особо отметил: «Есть даты и люди, которые уходят в бессмертие. Благодарен организаторам памятной, незабываемой встречи за то, что вспоминаем всех, кто покинул в далекие, грозные сороковые годы родные места, ушел и не вернулся, кто вернулся и прожил достойную жизнь. И все они – в вечной памяти. Среди тех, кто ковал и торжествовал Победу, был и участник Второй мировой войны, выдающийся государственный деятель Республики Узбекистан Шараф Рашидов, народный писатель Узбекистана, оставивший о себе память и в литературных произведениях».

Вспоминаются строки Алишера Навои, сказанные более полувека назад: «Поймите, люди всей земли: вражда – плохое дело. Живите в дружбе меж собой – нет лучшего удела!», высеченные на постаменте первого за рубежом памятника Алишеру Навои. Памятник в бронзе великому сыну узбекского народа установлен в центре Москвы – на Садовом кольце. Бессмертные строки Алишера Навои звучали из уст ведущих академиков на чествовании 500-летнего юбилея поэта в Эрмитаже блокадного Ленинграда в декабре 1941 года. Вечная ПАМЯТЬ тем, кто смог донести в те суровые дни слова Алишера Навои, и передать их нам, в наизидание, всем, живущим в 21 веке.

– Санкт-Петербургское государственное бюджетное учреждение «Культурно – досуговый центр «Красногвардейский» благодарит участников телемоста «Эхо блокады» из Ташкента. Мы выражаем слова искренней благодарности офицерам, которые в Ташкенте рассказали нам о крепости духа узбекского народа, который оказал неоценимую помощь осажденному городу Ленинграду. Сердечное спасибо за помощь в сохранении памяти о подвигах, спасибо за то тепло души, которым Узбекистан делился с каждым эвакуированным ребенком, с каждым эвакуированным ленинградцем, – отметила Оксана Ристо, заведующая центром фестивалей.

Полные положительные эмоциями прошли в Музее и встречи с представителями различных профессий, по различной тематике. Прошедший февраль был насыщен важными событиями и датами, среди которых дата, которую отмечали не только в нашей стране, но и далеко за ее пределами – день рождения Алишера Навои, выдающегося поэта, мыслителя, философа, государственного деятеля. Именно ему была посвящена программа для молодежи Алмазарского района, организаторы которой – отдел по делам обороны Алмазарского района г. Ташкента, руководимый подполковником Ильхомом Имомалиевым, совместно с Союзом молодежи района и мемориальным комплексом «Галаба боги» («Парк Победы»).

Встречу торжественно начал генерал-майор в отставке Рахматилла Отахонов, подробно рассказавший о пройденном им пути до достижения высокого звания генерала. Много было сказано о главном для каждого из нас – верном служении Родине на любом посту, выбранной профессии, пожелал молодежи отличной учебы, правильного выбора профессии в жизни. Привел он и яркие примеры из литературного наследия Алишера Навои, служившего верой и правдой Родине и народу своей поэзией, поэтому он в памяти на вечные времена. На большом экране демонстрировались фрагменты из исторического фильма «Навоий гулшани», созданного по идее художественного руководителя картины Ахмаджана Умарова. Поэзия вселенского поэта звучит сотни лет, в виде песен, исполняется ведущими вокалистами мира.

Все в зале внимательно следили за кадрами, что шли на экране, прерывали временами аплодисментами, подпевали газелям в исполнении Героя Узбекистана, народной артистки Муножат Юлчиевой. Поэтические строки Навои читал Темур-Малик Юнусов – актёр, кинорежиссёр, кавалер ордена «Мехнат шухрати».

Обиддин Махмудов – член Союза писателей Узбекистана, отличник народного образования, кандидат экономических наук, был безмерно рад, что в зале смогли поддержать его: молодежь и педагоги декламировали отрывки из литературного наследия Алишера Навои, отвечали на вопросы уникальной литературной викторины, победители которой получили из рук писателя книги: «Благодарен судьбе и устроителям этой программы, рад встрече с книгой, изданной в 1941 году к 500-летию Алишера Навои, автор произведения – поэт, ученый, педагог, заслуженный деятель искусств Узбекистана Максуд Шейхзаде».

Интересно было всем в зале узнать, что Ойбек – Муса Ташмухаммедов, экономист по образованию, писатель, поэт, ученый, общественный деятель, академик, народный писатель Узбекистана в годы Второй мировой войны написал свой роман «Навоий», переведенный на 25 языков мира, о жизни и творчестве Алишера Навои. О подробностях создания романа можно узнать, посетив Дом-музей имени Ойбека в Ташкенте, директором которого является внучка литератора Ойнур Ташмухаммедова.

Память об Алишере Навои вечна во всех видах искусства. И в памятниках, которые возносятся в Москве, Токио, Вашингтоне, Баку, Шанхае, автор которых незабвенный Равшан Миртаджиев, чье 70-летие было торжественно отмечено в феврале в Узбекистане. Завоевавший мировую славу академик, народный художник Узбекистана, лауреат Государственных премий, оставил после себя не один десяток талантливых последователей, которые продолжают путь своего наставника.

Флора ФАХРУТДИНОВА



@Vatanparvargaxatbot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot

SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI



VATANPARVAR

MUASSIS



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 71 260-36-50
buxgalteriya: 71 260-35-20
yuridik bo'lim: 71 260-29-41
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: Furqat Ergashev

Sahifalovchi: Nodirabegim Ne'matova
Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-5699
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 34 840 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:

100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya